

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

BUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG'ARMALARI FAKULTETI
“BUXGALTERIYA HISOBI” KAFEDRASI

TOSHEMUROV BOBUR BOYSARI O'G'LI

MOLIYAVIY NATIJALAR TO'GRISIDAGI HISOBOT,
UNING TAHLILI VA AUDITI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: dots. Ishonqulov N

TOSHKENT-2015

MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliyaviy natijalar va ularning korxonalarni boshqarishdagi ahamiyati.	
1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xo'jalik subektlarida moliyaviy natijalar	6
1.2. Korxonalarni samarali boshqarishda moliyaviy hisobotlarning tutgan o'rni va ahamiyati	16
1.3 Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot va uni shakillantirishning nazariy-uslubiy jihatlari	23
II BOB. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot va uning tahlilini takomillashtirish.	
2.1. Xo'jalik subektlarida moliyaviy natijalarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasini tahlili	30
2.2. Yalpi foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish	37
2.3 Asosiy va umumxo'jalik faoliyatidan olingan moliyaviy natijalar va ularga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	44
2.4 Sof foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili	50
III BOB. Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot va uning auditini takomillashtirish masalalari.	
3.1. Moliyaviy natijalar shakllanishi auditini va uni takomillashtirish	56
3.2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot auditini va uni xalqaro hamda milliy standartlar asosida takomillashtirish	69
.	
Xulosa	79
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	82

Kirish

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Mamlakatda bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyat yuritish samaradorligi, moliyaviy barqarorligi va rivojlanish istiqbollari ko'p jihatdan faoliyat yakuniy natijalariga bog'liq bo'ladi. Moliyaviy natijalarning shakllanish jarayoni, ularning korxona faoliyatidagi o'rni o'z navbatida bir qancha hisob-kitob ishlarini amalga oshirish va mavjud imkoniyatlardan foydalanish yo'nalishlarini aniqlashni talab etadi. Korxonalarning moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishi ularning faoliyati davomida olgan foydasining to'g'ri shakllantirilishi bilan aloqadordir. Shu sababga ko'ra ham xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy natijasi ko'rsatkichlarini ifodalovchi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzish va uning ustidan doimiy nazorat olib borish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu vazifalarni bajarish uchun xo'jalik sub'ektlari moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzish va taqdim etishni milliy standartlar talabi darajasida tashkil qilish, moliyaviy hisobot ma'lumotlarini tahlil qilish, xorijiy davlatlar tajribasi asosida hisobot tuzish jarayonini takomillashtirish zaruriyati sezilmoqda.

Hozirgi ishlab chiqarish rivojlanishi pog'onasida turgan bir paytda, xususiy tadbirkorlarning ish faoliyatini to'g'ri yo'naltirish uchun ya'ni ularning salohiyatini hisobot uchun ma'lumot yig'ish, to'ldirish uchun emas, balki tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish uchun hisobot shakllarining ixchamlashtirish va ortiqcha hisobotlarni qisqartirish buxgalteriya hisobi tizimining dolzarb masalalaridan biridir. Bu xususta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 9 fevralda bo'lib o'tgan majlisida ham alohida ta'kidlagan: «Kichik biznes subyektlari tomonidan statistik va soliq hisobotlarini taqdim etish mexanizmlarisezilarli darajada soddalashtirildi. Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining 98 foizi soliq va statistika hisobotlari elektron shaklda topshirikmoqda»¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi

Respublikamizni iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha hukumat qabul qilgan qarorlarni hayotga tadbiq qilishda, korxonalarni o'zini-o'zi moliyalashtirish va boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida hisob va moliyaviy hisobotning roli yanada oshib bormoqda. Shu boisdan bitiruv malakaviy ishida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishning kontseptual jihatlarini chuqurroq o'rganish, hisobotni tahlil etish va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot auditini yanada takomillashtirishga qaratilgan.

Shu nuqtai nazarga ko'ra ham moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, uning tahlilini va auditini samarali tashkil etishni har tomonlama o'rganishni talab etadigan muammolardan hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlari moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotini tuzishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini o'rganish asosida uning tahlili va auditini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ishning asosiy maqsadini tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishida qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy natijalarini aniqlashning uslubiy masalalarini tadqiq qilish;
- moliyaviy natijalarni shakllantirishning kontseptual jihatlarini yoritib berish;
- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishning uslubiy asoslarini ochib berish;
- milliy standartlar asosida «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot»ni tuzish va to'ldirish tartibini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish;
- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari asosida korxona faoliyatiga baho berish;
- respublikamiz amaliyotida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzish va taqdim etishni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;
- xalqaro standartlar asosida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- xo'jalik sub'ektlarining yalpi foydasiga hamda sof foydasiga ta'sir etuvchi

omillarni o'rganish;

- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot auditini tashkil etilishi va uning o'tkazilishini ilmiy-uslubiy jihatdan o'rganish;

- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot auditini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishning uslubiy asoslarini o'rganish, uning moliyaviy tahlilini va auditini takomillashtirish bo'yicha takliflar berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti sifatida «O'zbekko'mir» AK tarmog'idagi korxonalarning moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisobotlari olindi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Ilmiy izlanishning nazariy metodik asoslarini xorijiy va o'zbek iqtisodchi olimlarining buxgalteriya hisobiga oid asarlari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, Soliq Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va vazirliklarning shu sohaga taalluqli bo'lgan me'yoriy hujjatlar, korxonalarning yillik hisobotlari, shuningdek ilmiy jurnallar, ro'znomalarda chop etilgan maqolalar tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi tarkibiy tuzilishiga ko'ra kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA MOLIYAVIY NATIJALAR VA ULARNING KORXONALARNI BOSHQARISHDAGI AHAMIYATI

1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xo`jalik subektlarida moliyaviy natijalar va ularning shakllanishi

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish korxonalar faoliyatini tubdan isloh qilish, ularni yuzaga kelgan yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida rivojlanishini ta'minlash korxonalarning moliyaviy barqarorligiga uzviy bog'liq. Korxonalarning moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishi ularning faoliyati davomida olgan foydasining to'g'ri shakllantirilishi bilan aloqadordir. Chunki korxonalarda foyda shu erda ishlovchilarning moddiy ta'minlanishining, korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishning, ishlab chiqarishda fan-texnika yutuqlarini va yangi texnologiyalarni joriy qilish kabi ishlarning asosiy moddiy manbasi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida foyda ko'rsatkichini to'g'ri aniqlash juda muhim ahamiyatga ega. Mazkur daromad hisobidan maxsus maqsadlarga mo'ljallangan fondlar, rezerv fondi tashkil etiladi, kapital qo'yilmalar moliyalashtiriladi va ijtimoiy tadbirlar amalga oshiriladi.

Turli mulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona faoliyatining yakuni sifatida moliyaviy natijalar qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos"² ga ko'ra, moliyaviy natijalar - xo'jalik yurituvchi sub'ektning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakunidir, yoki boshqacha qilib aytganda moliyaviy natijalar - bu xo'jalik yurituvchi sub'ektning ma'lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishidir.

Bunday faoliyat natijasi hisobot davridagi barcha foydalar va zararlarni hisoblash yo'li bilan aniqlanadi.

Moliyaviy natijalarni shakllantirish jarayoni xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridagi korxonalarda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shunday bo'lishiga

² "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos" (O'z. R. M. V. tasdiqlagan №475, 14. 08. 1998 y, O'z. R. AV da ro'yxatga olingan, №17-07/86, 26. 07. 1

qaramay, iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalarda faoliyat moliyaviy natijalarini aniqlashda yagona an'anaviy usuldan foydalaniladi: daromad - xarajatlar = foyda (yoki zarar).

Korxonalar faoliyatining moliyaviy natijasini ta'riflovchi sintetik ko'rsatkich bo'lib balans (yalpi) foyda va zarari hisoblanadi.

Qonunchiligimizda "Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga qo'shiladigan, mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning qabul qilinishi foydani shakllantirish tartibini o'zgartirdi.

Ushbu nizomning ahamiyati behad katta bo'lib, u soliqqa tortiladigan foyda bilan buxgalteriya schyotida (balans foyda) hosil bo'ladigan foyda farqini aniqlash imkoniyatini beradi; foydalanuvchilar tomonidan qarorlar qabul qilish uchun moliyaviy hisobotning ahamiyatini oshiradi.

Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom bir tomonidan korxonalarga hisobot davri ichida sodir bo'ladigan xarajatlar va daromadlar to'g'risidagi aniq ma'lumotlarni olish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan soliq qonunlariga binoan soliq organlariga hisobotlarni tuzib topshirish imkoniyatini yaratadi. Bunda davlat o'z vakolatli (soliq) organlari orqali soliq hisobotini to'g'riligini tekshirish huquqiga ega.

Agar soliq qonunchiligi korxona foydasi va rentabelligini aniqlashda tadbirkorlik — barcha daromadlardan barcha xarajatlarni chiqarib tashlash — qonuniga amal qilganda oson bo'lardi.

Lekin davlatning soliq siyosati faqat soliq hisoblash va uni byudjetga o'tkazib olishnigina inobatga olmaydi, balki soliq siyosati rag'batlantiruvchi xarakterga ega, xo'jalik yuritishning ratsional usulini rag'batlantiradi va resurslardan qonunsiz foydalanishni jazolaydi. Soliq siyosati ma'lum ijtimoiy maqsadni ham ko'zlaydi, yangi hududlarni o'zlashtirishga undaydi.

Demak, korxona o'z xo'jalik faoliyatini samaradorligini aniqlash va kelgusi davrga boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun hisobot davrida daromad va xarajatlarni hisoblab chiqish imkoniyatini beradigan axbBrotlarni yig'ish va

ishlab chiqish tizimiga ega bo'lishi kerak. Korxona bu hisoblarni soliq faktorini inobatga olmasdan bajaradi.

Korxonaning balans foydasini aniqlash uchun sotishdan tushgan tushumdan olib tashlanadigan xarajatlar ro'yxati xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomning' asosiy matnida keltirilgan.

Demak, soliqqa tortiladigan bazani hisoblab chiqish uchun bu xarajatlar (Soliq kodeksining 147-moddasiga asosan) ni soliqqa tortiladigan foydaga qaytadan qo'shish kerak. Buning natijasida korxona quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi:

- qancha va korxonaning qaysi bo'linmalaridan ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqaruv faoliyati natijasida foyda olishdi;
- korxonaning yakuniy faoliyatiga davlatning soliq siyosati qanchalik ta'sir qilganligi;
- pirovard natijada korxona byudjetga qancha pul o'tkazib berishi.

Korxonalarlarda moliyaviy natijalarning muhim ko'rsatkichlaridan biri bu mahsulot (ish, xizmat) sotishdan ko'rilgan daromaddir.

Daromad xo'jalik jarayonlari natijasida korxonaga kelib tushgan tushumlar evaziga aktivlar miqdorining ko'payishi yoki majburiyatlarning kamayishini anglatadi. Eng oddiy ko'rinishda daromad ma'lum davrda sotilgan mahsulot (ish, xizmat) qiymatiga tengdir.

Ta'kidlash joizki, korxona aktivlari miqdorini ko'paytiruvchi barcha turdagi xo'jalik jarayonlari natijasini daromad deb bo'lmaydi. Bankdan olingan kreditlar korxona pul mablag'lari miqdorini ko'paytirsada, daromad hisoblanmaydi. Shuningdek, korxona moliyaviy faoliyati bo'yicha boshqa korxonaga berilgan qarzlarning kelib tushishi va ta'sischilarning korxona ustav kapitaliga kiritgan qo'shimcha mablag'lari ham daromad summasiga qo'shilmaydi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, shunday xulosa qilish mumkinki, daromad korxonaning xo'jalik faoliyatini tashkil qiluvchi jarayonlar natijasida aktivlar oqimi yoki majburiyatlarning kamayishini anglatuvchi iqtisodiy ko'rsatkichdir.

Buxgalteriya hisobining milliy andozalarini amalga kiritish zarurati asosan buxgalteriya hisobining bazaviy qoidalari va tamoyillarini tushuntirish va

umumlashtirish, asosiy tushunchalarni bayon qilish, u yoki bu buxgalteriya usullarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasida hisobning o'ziga xos xususiyatlarini qo'llashdan iboratdir. Moliyaviy natijalar hisobini yuritishda «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» nomli 1-son BHMA, «Asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar» nomli 2-son BHMA, «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» nomli 3-son BHMA, «Tovar-moddiy zahiralar» nomli 4-son BHMA, «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish» nomli 19-son BHMA, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma» nomli 21-son BHMAlar uslubiy asos sifatida qo'llanilishi mumkin.

Ba'zi iqtisodchi olimlar fikricha: "... korxona xo'jalik faoliyati moliyaviy natijasi ikkita qismdan tashkil topadi:

1.Sotish natijasi: mahsulot sotish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishdan ko'rilgan foyda (zarar);

2.Sotishdan tashqari natija: mahsulot (ish,xizmat) sotish bilan bog'liq bo'lmagan jarayonlardan ko'rilgan foyda (zarar)."³

Bizning fikrimizcha, moliyaviy natijani bu tarzda qismlash asosiy faoliyatga tegishli bo'lmagan natijani umumlashtirib, hisobga olish ishlarini bir qadar murakkablashtiradi.

Quyida iqtisodchi olim A.X.Pardaevning korxona daromadini tarkiblash usuli ko'rsatilgan⁴.

Ushbu fikrlarni o'rganib chiqib, hamda bozor iqtisodiyoti talablarini hisobga olgan holda ta'kidlash joizki, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda ko'rsatilgan daromad tarkibini o'rganishda korxona xo'jalik faoliyatini bir necha qismlarga bo'lib o'rganish mumkin. Bu qismlar amaliyotda faoliyat turlari deb nomlanib, korxonalarida xo'jalik faoliyatini uchta faoliyat turidan iborat deb hisoblash mumkin.

³ Ануфриев Б. "Учет и распределение финансовых результатов". Журнал, Бухгалтерский учет. № 4, 1999.

⁴ Pardayev A.X. "Qimmatli qog'ozlar daromad manbai". Jamiyat va boshqaruv. 2000, 2-son.

Shunga ko'ra moliyaviy natijalarni shakllantirish jarayonini quyidagi ko'rinishda amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz:

Asosiy faoliyat daromadi asosan mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushum va operatsion daromadlardan tashkil topadi. Bozor munosabatlariga o'tish davriga qadar korxonada mahsulot sotishdan ko'rilgan daromadi hajmi faoliyat yalpi daromadining 90 foizini tashkil qilgan⁵. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxona moliyaviy natijalar shakllanish tartibining o'zgarishi natijasida bu ko'rsatkichning aniq salmog'i belgilanmagan va bu miqdor turli tarmoq korxonalarida bir-biridan keskin farq qiladi.

Asosiy faoliyat daromadining keyingi tarkibiy qismi — bu asosiy faoliyatning boshqa (operatsion) daromadlaridir. Bunga asosiy fondlar va boshqa molmulkni sotishdan tushgan daromad, undirilgan yoki qarzdorlar tomonidan e'tirof etilgan har xil jarimalar va vaqtida to'lanmagan qarzlar, hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillar foydasi, da'vo bildirish muddati o'tgan kreditorlik qarzlarini hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar va xolisona moliyaviy yordamlar kabi moddalar kiradi.

Korxona xo'jalik faoliyatida bepul olingan qiymatliklar va mablag'lar asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (operatsion) tarkibida ko'rsatiladi. Bunda, moddiy qiymatliklar korxona balansiga bozor bahosida qabul qilinadi va foyda solig'i bazasiga qo'shiladi. Davlat subsidiyalari summasi esa soliq qonunchiligiga muvofiq, soliq solishdagi yalpi daromadga kiritilmaydi.

Asosiy faoliyat daromadi korxona yalpi daromadining salmoqli ulushini tashkil qilishi uning muhim ko'rsatkich sifatida korxonaning kelgusi rivojlanish istiqbollari belgilab beradi. Daromadni shakllantirish korxona ishlab chiqarish faoliyatining barcha jabhalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar: ishlab chiqarish hajmi va xarajatlar tarkibi, asosiy vositalar va aylanma mablag'lardan foydalanish darajasi, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish, korxonaning moliyaviy holatiga bog'liqdir.

Moliyaviy faoliyat daromadi. Mamlakatimizda bozor

⁵ Бухгалтерский учет. Под редакцией И.Е. Тишкова. Мн.: "Высшая школа", 1996. 687 с.

munosabatlarining rivojlanishi bilan korxonalar faoliyatida yangi hisob ob'ektlari: qimmatli qog'ozlar, dividend, renta, royalti kabi iqtisodiy terminlar vujudga keldi. Ayni vaqtlarda korxona moliyaviy faoliyat turining asosiy instrumentlari moliyaviy aktivlar, ya'ni qimmatli qog'ozlardir. Qimmatli qog'ozlar bu pullik hujjat bo'lib, huquqiy maqomga ega shaxslarning uni sotib olgan shaxs oldidagi mulkiy yoki qarz majburiyatlarini ifodalaydi. Qimmatli qog'ozlar amal qilish muddati mobaynida o'z egasiga dividend yoki foiz ko'rinishida ma'lum daromadni kafolatlaydi, ular bilan bog'liq jarayonlar korxona moliyaviy faoliyatining asosini tashkil qiladi. Umumiy ravishda moliyaviy faoliyat daromadi tarkibini quyidagicha ko'rsatish mumkin: dividendlar va boshqa korxonani tashkil qilishda ulushli qatnashishdan olingan daromadlar, qimmatli qog'ozlar va qarz mablag'lari bo'yicha olingan daromadlar, valyuta va valyuta jarayonlari bo'yicha daromadlar, mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar, qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan va boshqa moliyaviy mablag'larni qayta baholashdan olingan daromadlar, olingan royalti va sarmoya transferti, moliyaviy faoliyatning boshqa daromatlari.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxona moliyaviy faoliyatining daromad moddalari ko'paydi. Yaqin yillargacha korxonalar moliyaviy daromadi asosan korxona mablag'laridan foydalanganlik uchun to'lanadigan foizlardan iborat edi va faoliyat yalpi daromadining taxminan 8 foiziga to'g'ri kelardi. Endi bo'lsa qimmatli qog'ozlar emissiyasi, oldi-sotdi jarayonlari, boshqa korxonani tashkil qilishda ulushli qatnashish, renta, lizing, dividend, diskont kabi daromad moddalari korxona yalpi daromadining salmoqli ulushini tashkil qilmoqda.

Korxonalarda (AJ) moliyaviy faoliyat daromadining asosiy qismini muomalaga chiqargan aktsiyalarni sotishdan tushgan emissiya daromadi tashkil qiladi. Ushbu daromad hajmi, avvalo, aktsiyalarning fond birjalaridagi bozor bahosi, korxona reytingi va sotilgan aktsiyalar sonidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Sotib olingan obligatsiyalar bo'yicha foizlar ham korxona moliyaviy faoliyati daromadining salmoqli qismini tashkil qiladi.

Umumxo'jalik faoliyati daromadi. Korxona faoliyati moliyaviy natijasini shakllantirishda, aniqrog'i soliqqa tortiladigan foydani aniqlashda umumxo'jalik faoliyati natijasiga favqulodda daromadlar ham qo'shiladi. Ularga siyosiy-iqtisodiy holatning o'zgarishi natijasida olingan daromad va xayriya yordamlarini misol qilib keltirish mumkin.

Korxonalar faoliyati daromadi tarkibini bunday qismlarga ajratish faoliyatning har bir turi bo'yicha daromad salmog'ini aniqlashga, korxona mablag'lari manbalari va ulardan foydalanish yo'nalishlarini alohida va xolisona baholashga imkon beradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy natijalar ko'rsatkichlaridan yana biri bu ishlab chiqarish xarajatlaridir. Pul birligi ko'rinishida ifodalangan va ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini tashkil qiluvchi xarajatlar moliyaviy natijalar shakllanishida o'ziga xos o'rin tutadi.

Korxonalar moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimida xarajatlar o'ziga xos o'ringa ega. Xarajatlar deb korxona kapitali (aktivlari) miqdorining kamayishiga olib keluvchi majburiyatlar vujudga kelishi yoki aktivlar sarflanishi natijasida iqtisodiy manbaning kamayishiga aytiladi. Ular, odatda, faoliyat muntazamligini ta'minlash va daromad olish uchun sarflanadi.

Ta'kidlash joizki, korxona aktivlari miqdorining kamayishi ba'zi hollarda xarajatlarga bog'liq bo'lmasligi mumkin. Uzoq muddatli aktivlarni sotib olish yoki yaratishga sarflangan mablag'lar, boshqa korxona ustav kapitaliga qilingan qo'yilmalar, qayta sotish uchun aktsionerlik jamiyatlari aktsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarni xarid qilishga sarflangan mablag'lar, olingan kredit yoki qarzlarni qaytarish, resurslar sotib olish uchun oldindan to'lov va bo'nak summalari va sarmoyadorlarning korxona mulkidan o'z hissasini chiqarib olishi korxona aktivlari va kapitali miqdorini kamaytirsada, xarajat hisoblanmaydi.

Xo'jalik faoliyatida sodir bo'ladigan xarajatlar tarkibi va ularni aniqlashning yagona uslubiy asoslari "Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risida"gi Nizomda ko'rsatib berilgan. Ushbu hujjatga muvofiq ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

- asosiy faoliyat xarajatlari;

- davr xarajatlari.

Korxonalar xo'jalik faoliyatida sodir bo'lgan barcha turdagi xarajatlar quyidagi shartlar bajarilganda hisobda tan olinadi:

- xarajatlar aniq shartnoma shartlari, qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga asosan amalga oshirilganda;
- xarajatlar summasi (miqdori)ni aniqlash mumkin bo'lganda;
- xo'jalik jarayonlari natijasida korxonada iqtisodiy manbaning kamayganligi aniq bo'lganda, ya'ni aktiv sarflanganda.

Korxona xarajatlari moliyaviy natijalarga teskari proportsional ravishda ta'sir ko'rsatadi. Ular, asosan, mulkiy va mehnat resurslarini sotib olishga sarflangan mablag'lar bo'lib, korxona uchun majburiy to'lov hisoblanadi.

Korxonalarda moliyaviy natijalar hisobining yana bir ob'ekti bu sof foydadir. U korxona xo'jalik faoliyatining asosiy manbai va samaradorligining muhim ko'rsatkichidir.

Ma'lumki, bozor munosabatlari sharoitida barcha turdagi tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi foyda olish. Bu boradagi buxgalteriya hisobining funktsiyasi korxona faoliyatining yakuniy natijasini aniqlash va uni hisobotda aks ettirish orqali ma'lumot foydalanuvchilarga etkazish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 15 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish harajatlarning tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tasniflanadi (1-chizma).

Nizomga binoan foydaning turlari quyidagicha aniqlanadi:

- mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tavofut sifatida aniqlanadi:

$$YAF = SST - IT$$

Bunda: YAF – yalpi foyda;

SST – sotishdan olingan sof tushum;

IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

- asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr harajatlari o'rtasidagi tavofut va plyus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$AFF = YAF - DX + BD - BZ,$$


bunda,

AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX – davr harajatlari;

BD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ – asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar;



1-chizma. Foydaning turkumlanishi⁶.

⁶ Muallif ishlanmasi.

- xo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zararlar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$UF = AFF + MD - MX,$$

bunda,

UF – umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD – moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX – moliyaviy faoliyat harajatlari;

- soliq to'lagungacha olingan foyda, u umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlarda ko'rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$STF = UF + FP - FZ,$$

bunda,

STF – soliq to'lagungacha olingan foyda;

FP – favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ – favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan zarar;

- yilning soy foydasi, u soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi sub'ekt ixtiyorida qoladi, o'zida daromad (foyda)dan, to'lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to'langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$SF = STF - DS - BS,$$

bunda,

SF – sof foyda;

DS – daromad (foyda)dan to'lanadigan soliq;

BS – boshqa soliqlar va to'lovlar.⁵

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya natijalarini hisobga olish korxona faoliyatida markaziy o'rinni egallaydi va uni hisobga olishning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 5-fevraldagi "Maxsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakillantirish to'g'risida Nizom" nomli 54-sonli Qaror. O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy Qonunlari, 1999. №3.

- olingan foyda miqdorini har oyda hamda yil boshidan o'z vaqtida to'g'ri hisob-kitob qilish;

- moliya natijalari bilan bog'liq operatsiyalarni va ularning taqsimlanishini buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida hamda tegishli registrlarda to'g'ri aks ettirish.

Moliyaviy natijalarning miqdoriga juda ko'p omillar ta'sir qiladi. Masalan, inflyatsiya, valyutaning o'zgarib turishi, kredit siyosati va boshqalar. Ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi yuqorida sanab o'tilgan omillar ta'siri hisobga olingan holda moliyaviy natijalarni aniqlash lozim. Aniqlangan moliya natijasi haqiqatni to'g'ri va aniq aks ettirishi lozim. SHuning uchun ham korxonalarda buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritish va olingan foyda miqdorini to'g'ri aniqlash zarur. Foyda miqdorining kamayishi davlat byudjetiga to'lanishi lozim bo'lgan mablag' miqdorining kamayishiga va bu, o'z navbatida, byudjet hisobidan amalga oshiriladigan harajatlar miqdorining kamayishiga olib keladi. Zararga ishlaydigan korxonalar esa oxir-oqibatda «sinadi», ya'ni inqirozga uchraydi. CHunki bozor iqtisodiyoti sharoitida amaldagi Qonunlarga ko'ra yaxshi ishlaydigan korxonalar foydasini qayta taqsimlash ko'zda tutilmagan. SHuning uchun ham zararga ishlaydigan korxonalar o'z harajatlarini o'zlari qoplashlari, buning uchun qoplash yo'llarini ishlab chiqishlari kerak.

1.2. Korxonalarni samarali boshqarishda moliyaviy hisobotlarning tutgan o'rni va ahamiyati.

Respublikamizda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishning uslubiy jihatlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998-yil 25-avgustda 43-sonli buyruq bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 27-avgustda 484-son bilan ro'yxatga olingan «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» nomli 3-son buxgalteriya hisobining milliy standartida keltirib o'tilgan. Ushbu standartning maqsadi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning moddalarini hamda barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunda bayon qilingan umumiy qoidalarga muvofiq

ravishda hisobotni tuzish va taqdim etishlari uchun bu moliyaviy natijalarni tasnif etishni bayon qilib berishdan iborat. Bu esa turli davrlarga doir hisobot ma'lumotlarini boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shunga o'xshash hisoblari bilan qiyoslashni ta'minlaydi. SHuningdek standart xo'jalik umumiy (oddiy) faoliyatidan olingan daromadlar va ko'rilgan zararlar moddalarini, favqulodda vaziyatlar, faoliyati to'xtatish, hisob bahosidagi o'zgarishlar, hisob siyosatidagi o'zgarishlar va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdagi muhim xatolarni tuzatish tartibini belgilab beradi.

**Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda ochib beriladigan
axborotlar**

Savdo-sotiqdan tushgan sof tushum

Savdo-sotiqning yalpi moliyaviy natijalari

Asosiy faoliyatdan keladigan boshqa operatsion daromadlari va xarajatlari

Asosiy xo'jalik faoliyati moliyaviy natijalari (foyda yoki zarar);

Moliyaviy faoliyatga doir boshqa daromadlar va xarajatlar;

Xo'jalik umumiy faoliyatining moliyaviy natijasi

Favqulodda foyda va zarar

Daromad soligi to'langunga qadar umumiy moliyaviy natijalar (foydalar yoki zararlar)

Hisobot davridagi sof foyda (zarar)

**2-chizma. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda ochib beriladigan
axborotlar.**

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda quyidagilarni ochib berish zarur:
Muayyan davrda tan olingan daromadlar va xarajatlarning barcha moddalari, agar buxgalteriya hisobi milliy standartlarida boshqacha yondashuv ko'zda tutilmagan bo'lsa, hisobot davridagi sof daromad yoki zararni aniqlashga kiritiladi.

Hisobot davridagi sof daromad yoki zarar quyidagi elementlar asosida aniqlanadi, ularning har biri moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda ochib berilishi lozim:

- Xo'jalik umumiy faoliyatidan olingan daromad yoki ko'rilgan zarar;
- Favqulodda daromad (zarar);
- Daromad soligi to'langunga qadar umumiy moliyaviy natija (foyda yoki zarar);
- Daromad soligidan tashqari sof foyda.

Favqulodda moddalardan vujudga kelgan daromad yoki zarar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda alohida ko'rsatilishi lozim. Har bir favqulodda modda mohiyati va qiymatini tushuntirishda to'la ochib berish lozim.

Xo'jalik umumiy (oddiy) faoliyatidan keladigan daromadlar va xarajatlar moddalari muayyan miqdorga etsa va xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyati operatsiyalari mazmuni juda muhim bo'lsa, bu moddalarning mohiyati va miqdori ochib ko'rsatilishi kerak.

Tushuntirishlarda ochib ko'rsatishni talab qiladigan muhim xo'jalik operatsiyalari:

- Mahsulotni sotishning sof qiymatiga qadar TMZni qayta baholab kamaytirish yoki asosiy vositalar qiymati tiklanmay turib uni qayta baholab narxini arzonlashtirish, shuningdek bunday qayta baholashlarni bekor qilish;
- Xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini kechiktirish, shuningdek kechiktirishga xarajatlar bo'yicha har qanday zahiralarini bekor qilish;
- Uzoq muddatli investitsiyalarni tugatish;
- Faoliyati to'xtatish;
- Sud jarayonlarini yo'lga qo'yish;

- Zahirialarni bekor qilish.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002-yilning 27-dekabrdagi 140-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalar» barcha hisobot shakllarini, jumladan «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»ni tuzish tartibini belgilab beradi. Mazkur Qoidalarga muvofiq moliyaviy hisobotni mulkchilikning barcha shakllariga mansub, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko'ra yuridik shaxs hisoblangan korxona va tashkilotlar (bundan sug'urta tashkilotlari va banklar mustasno), shuningdek mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balans va hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan, soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchi hisoblanadigan alohida bo'linmalar taqdim etadi. Yuridik shaxs maqomiga ega byudjet tashkilotlari faqat 2-son shakl hisoboti - "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot"ni moliya organlariga taqdim etishlari kerak.

Moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2000-yil 15- iyunda 47-son bilan tasdiqlangan Choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari to'g'risida nizom (ro'yxat raqami 942, 2000 -yil 3- iyul, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining me'yoriy hujjatlari axborotnomasi, 2000-yil 13-son) bilan belgilanadi.

Yillik moliyaviy hisobot quyidagi shakllar hajmida taqdim etiladi:

- a) buxgalteriya balansi - 1-son shakl;
- b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot - 2-son shakl;
- c) pul oqimlari to'g'risida hisobot - 4-son shakl;
- d) xususiy kapital to'g'risida hisobot - 5-son shakl;

Yarim yillik va choraklik moliyaviy hisobotlar quyidagi shakllar hajmida taqdim etiladi:

- a) buxgalteriya balansi - 1 -son shakl;
- b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot - 2-son shakl;

Kichik korxona va mikrofirmalar faqat buxgalteriya balansi - 1-son shakl, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot - 2-son shakldan iborat bo'lgan yillik moliyaviy hisobotni taqdim etadilar.

Iillik moliyaviy hisobotga hisobot yilida korxona faoliyatining yakuniy natijalariga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar bayon etilgan tushuntirish xati ilova qilinadi.

Agar balans yil boshida o'zgartirilgan bo'lsa, tushuntirish xatida o'zgartirish sabablari tushuntiriladi. Unda keyingi yil uchun qabul qilingan hisob siyosati ham keltiriladi.

Agar asosiy fondlarni qayta baholash hisobot yilining birinchi sanasi holatiga o'tkazilsa, qayta baholash natijalarining ko'rsatkichlari hisobot yilining boshiga shakllanadigan moliyaviy hisobotga qabul qilinadi. Bunda o'tgan yilning oxiridagi ko'rsatkich hisobot yilining boshidagi ko'rsatkichga mos kelmasligi, asosiy vositalarni hisobot yilining birinchi sanasiga o'tkazilgan qayta baholashning natijasi deb tushuniladi va joriy davrning moliyaviy hisobotidagi tushuntirish xatida bayon etiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida" qonunning 10-moddasida (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-yil 5-son) ko'rsatilgan yuridik shaxslar soliq organlariga auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan keyin 15 kun davomida, lekin hisobot yilidan keyingi yilning 15- mayidan kechiktirmay, moliyaviy hisobotning to'g'riligi to'g'risida auditorlik xulosasi nusxasini taqdim etadilar.

Tashabbusli auditorlik tekshiruvi o'tkazilgan taqdirda korxona moliyaviy hisobotining to'g'riligi to'g'risida auditorlik xulosasining nusxasi soliq organlariga auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan keyin 15 kun davomida taqdim etiladi.

Moliyaviy hisobot shakllarida barcha rekvizitlar va nazarda tutilgan ko'rsatkichlar to'ldirilishi kerak. Korxonada tegishli aktivlar, passivlar, operatsiyalar mavjud emasligi sababli biror-bir modda (satrlar, ustunlar) to'ldirilmagan taqdirda, ushbu modda (satr, ustun) ustiga chizib qo'yiladi.

Moliyaviy hisobot shakllarining manzil qismi quyidagi tartibda to'ldiriladi:

a) "Korxona, tashkilot" rekviziti - korxonaning to'liq nomi (belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan ta'sis hujjatlariga muvofiq) va KTUTga ko'ra uning kodi ko'rsatiladi;

b) "Tarmoq" rekviziti - korxona tarmog'i va XXTUTga ko'ra tarmoq kodi ko'rsatiladi;

c) "Tashkiliy-huquqiy shakl" rekviziti - korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli va THTga ko'ra tashkiliy-huquqiy shaklning kodi ko'rsatiladi;

d) "Mulkchilik shakli" rekviziti - korxonaning mulkchilik shakli va MSHTga ko'ra mulkchilik shaklining kodi ko'rsatiladi;

e) "Vazirliklar, idoralar va boshqalar" rekviziti - ixtiyorida korxona turgan (agar u mavjud bo'lsa) va unga moliyaviy hisobot yo'naltiriladigan organning nomi hamda DBPBTga ko'ra ushbu organning kodi ko'rsatiladi;

f) "Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami" rekviziti - STIR bo'yicha korxonaning identifikatsiya raqami ko'rsatiladi;

g) "Hudud" rekviziti - MHOBT bo'yicha kod ko'rsatiladi;

h) "Manzil" rekviziti - korxonaning to'liq yuridik manzili ko'rsatiladi.

Moliyaviy hisobotni tuzish chog'ida Uzbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Buxgalteriya hisobi milliy standartlariga, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish masalalari bo'yicha boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanish lozim.

Korxona va tashkilotlar barcha alohida mustaqil balansga ajratilmagan bo'linmalarining faoliyat ko'rsatkichlari moliyaviy hisobot shakllarining ko'rsatkichlariga kiritilishi kerak.

Moliyaviy hisobotni tuzish chog'ida hisobot sanasi bo'lib hisobot davrining oxirgi taqvimiy kuni hisoblanadi.

Hisobot yilida tugatilgan yoki qayta tashkil etilgan korxona yil boshidan tugatish (qayta tashkil etish) paytigacha bo'lgan davr uchun yillik moliyaviy hisobotning amaldagi shakllari bo'yicha hisobot taqdim etadi.

1-oktyabrga qadar yangi barpo etilgan korxonalar moliyaviy hisobotda mablag'lar va ularning manbalarini ular belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan oyning 1-kunidan boshlab hisobot yilining 31-dekabriga qadar, hisobot yilining 1 oktyabridan keyin barpo etilgan korxonalar esa - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan boshlab keyingi yilning 31-dekabrigacha (31-dekabr ham kiradi) ko'rsatadilar (ko'rsatilgan tartib tugatilgan (qayta tashkil etilgan) korxonalar va ularning alohida bo'linmalari bazasida barpo etilgan korxonalarga tatbiq etilmaydi).

Korxona balansining moddalari aktivlar va majburiyatlarning puxta o'tkazilgan inventarizatsiyasi bilan asoslangan bo'lishi kerak. Inventarizatsiya O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1999 -yil 19-oktyabrda EG/17-19-2075-son bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti (19-son BHMS) "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish" (ro'yxat raqami 833, 1999-yil 2-noyabr) belgilagan tartibda o'tkaziladi. Bunda yillik moliyaviy hisobotni taqdim etishga qadar doimiy ishlab turgan inventarizatsiya komissiyalari tomonidan inventarizatsiya davomida aniqlangan, boyliklar haqiqiy mavjudligining buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga qaraganda tafovutlari tartibga solinishi kerak. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini inventarizatsiyalashlar ham o'tkazilishi kerak, ular o'zaro hisob-kitoblar saldosini tasdiqlaydigan solishtirish dalolatnomalari yoki xatlar bilan rasmiylashtiriladi. O'tkazilgan inventarizatsiyalar soni va natijalari, shuningdek ularni o'tkazmaslik sabablari yillik moliyaviy hisobotga ilova qilinadigan tushuntirish xatida aks ettirilishi kerak.

Moliyaviy hisobot shakllariga rahbar va bosh buxgalter imzo chekadi, imzolar muhr bilan tasdiqlanadi.

Moliyaviy hisobotda o'chirish va ustiga yozishlar bo'lmasligi kerak. Xatolar tuzatilgan taqdirda tegishli qaydlar qilinadi, ularni moliyaviy hisobotlarga imzo chekkan shaxslar tasdiqlab, tuzatish sanasini ko'rsatadilar.

Joriy hamda o'tgan yil hisobot ma'lumotlaridagi (ular tasdiqlanganidan keyin) tuzatishlar uning ma'lumotlarini buzishlar aniqlangan hisobot davri uchun tuzilgan hisobotda amalga oshiriladi, bunda tuzatishlar hisobot davri (chorak, yil boshidan) uchun ma'lumotlarga kiritiladi.

1.3. Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot va uni shakllantirishning nazariy-uslubiy jihatlari

Moliyaviy hisobot – xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan mahsulot (ishvaxizmat)lar sotish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar majmui bo'lib, u subyektning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining holatini ma'lum davr (chorak, yillik) ga qiymat ko'rinishida aks etishidir. Hisobot axborotlari sotilgan mahsulot (ish va xizmat) lar, ishlab chiqarish xarajatlari, xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari, ishlarning moliyaviy natijalari, soliqqa tortish hamda dividendlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Hisobot ma'lumotlari bo'yicha korxona rahbari mulkdorlar, ta'sischilar, boshqaruv va nazorat tizimi, yuqori tashkilotlar oldida hisobot beradilar.

Birinchi navbatda shuni aytish joizki, korxonalar majburiy tartibda quyidagi foydalanuvchilarga chorak va yillik hisobotini topshiradi: ta'sis hujjatlariga binoan mulkdorlarga; davlat soliq inspeksiyasiga; O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan korxona faoliyatining ayrim tomonlarini tekshirish va tegishli hisobotni olish vazifalari yuklatilgan boshqa davlat organlariga. Amaldagi qonunga binoan:⁷

–barcha korxona va muassasalar uchun 1- yanvardan 31- dekabrigacha bo'lgan davr hisobot yili hisoblanadi;

–yangi tashkil etilgan korxona va muassasalar uchun birinchi hisobot yili bo'lib, ular yuridik huquqqa ega bo'lgan sanadan shu yilning 31- dekabrigacha bo'lgan davr hisoblanadi. 1- oktabrdan keyin tashkil etilgan korxonalar uchun ularning yuridik huquqqa ega bo'lgan sanadan keyingi yilning 31- dekabrigacha bo'lgan davrni birinchi hisobot yili deb hisoblashga ruxsat beriladi;

⁷O'zbekiston respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 1996-y.

–korxonalar choraklik va yillik buxgalteriya hisobotlarini O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi tomonidan belgilangan muddatlarda topshiradilar.

Hisobot rahbar va bosh buxgalter tomonidan imzolanadi va korxonaning xo'jalik faoliyati natijalari, mulkiy va moliyaviy holati to'g'risidagi yillik buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lib matbulotda e'lon etilishi mumkin. E'lon qilingan hisobotning to'g'riligi mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlanadi.

Yillik moliyaviy hisobotni tekshirish chog'ida daromadlarni yashirish yoki ular bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarni davr xarajatlariga (yoki muomala chiqimlariga) kiritish natijasida moliyaviy natijalarni kamaytirib ko'rsatish aniqlangan holda buxgalteriya hisobi va o'tgan yil uchun moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritilmaydi, balki joriy yilda hisobot davrida aniqlangan o'tgan yillar foydasi sifatida aks ettiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002-yilning 27-dekabrdagi 140-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalar»ga asosan «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot»ni tuzish tartibi quyida bayon qilinadi.

"Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tushum" moddasi bo'yicha (010-satr) mahsulot, tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan olingan tushum ko'rsatiladi, bunda soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i) hamda qaytarilgan tovarlar va tayyor mahsulotning qiymati, xaridorning sotish narxlaridan chegirmalari chegiriladi.

010-satr asosiy (operatsion) faoliyatdan daromadlarni hisobga olish hisobvaraqlari (9000) ma'lumotlari bo'yicha to'ldiriladi.

Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga (lizingga) berish hisoblangan korxonalar 010-satr bo'yicha joriy hisobot davriga tegishli bo'lgan daromad summasini aks ettiradilar.

Vositachi korxonalar 010-satrda komission haqlar summasini aks ettiradilar.

"Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi" moddasi bo'yicha (020-satr) sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) tannarxini hisobga

olish hisobvaraqlarida (9100) hisobga olingan, sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) tannarxining summasi ko'rsatiladi.

Savdo korxonalari ushbu satr bo'yicha sotilgan tovarlarning xarid qiymatini aks ettiradilar. Tovar aylanmasida (tovarlarni qabul qilish va sotishda) ishtirok etmasdan, xizmatlar uchun haq ko'rinishida daromad oladigan vositachi tashkilotlar ushbu satrni to'ldirmaydilar.

"Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan yalpi foyda (zarar)" (030-satr) mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tushum bilan sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi o'rtasidagi farq (010-satr-020-satr) sifatida aniqlanadi.

"Davr xarajatlari, jami" moddasi bo'yicha (040-satr) 050, 060, 070, 080-satrlar bo'yicha yakuniy summa aks ettiriladi.

"Realizatsiya xarajatlari" moddasi bo'yicha (050-satr) hisobi 9410-"Realizatsiya xarajatlari" hisobvarag'ida yuritiladigan: mahsulotni realizatsiya qilish xarajatlari, ya'ni mahsulotni iste'molchiga etkazish, transport vositalariga ortish bilan bog'liq xarajatlar, marketing bilan shug'ullanadigan bo'limlar va xodimlarning xarajatlari va hokazolar aks ettiriladi.

"Ma'muriy xarajatlar" moddasi bo'yicha (060-satr) hisobi 9420-"Ma'muriy xarajatlar" hisobvarag'ida yuritiladigan: korxonani boshqarish xarajatlari, boshqaruv xodimlari mehnatiga haq to'lash xarajatlari, umumba'muriy maqsaddagi asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari, umumxo'jalik maqsadidagi xonalarning ijara haqi va boshqa ma'muriy xarajatlar aks ettiriladi.

"Boshqa operatsion xarajatlar" moddasi bo'yicha (070-satr) hisobi 9430-"Boshqa operatsion xarajatlar" hisobvarag'ida yuritiladigan: kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari, axboriy, auditorlik va maslahat xizmatlariga haq to'lash xarajatlari, kompensatsiyalaydigan va rag'batlantiradigan xususiyatdagi to'lovlar, ish haqini hisoblab yozishda hisobga olinmaydigan to'lovlar va xarajatlar, bank va depozitariy xizmatlariga haq, zararlar, jarimalar, penyalar va operatsion faoliyat jarayonida yuzaga keladigan, ishlab chiqarish jarayoni, moliyaviy faoliyat bilan

bog'lanmagan va xarajatlarning favqulodda moddalari sifatlariga ega bo'lmagan boshqa xarajatlar aks ettiriladi.

"Kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari" moddasi bo'yicha (080-satr) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son bilan tasdiqlangan Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida nizomning (Uzbekiston Respublikasi hukumati qarorlari to'plami, 1999-yil 2-son, 9-modda) 2.4-bo'limida keltirilgan, kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari aks ettiriladi va 9440-"Kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari" hisobvarag'ida umumlashtirilgan hisob ma'lumotlari bo'yicha to'ldiriladi.

"Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar" moddasi bo'yicha (090-satr) hisobi asosiy faoliyatdan boshqa daromadlarni hisobga olish hisobvaraqlarida (9300) yuritiladigan: asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda, undirilgan jarimalar, penya va neustoykalar, o'tgan yillar foydasi, qisqa muddatli ijaradan daromadlar, kreditorlik va deponentlik qarzini hisobdan chiqarishdan daromadlar, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarning daromadlari, tekin moliyaviy yordam va boshqa operatsion daromadlar ko'rsatiladi.

"Asosiy faoliyatdan foyda (zarar)" moddasi bo'yicha (100-satr) korxona asosiy faoliyatining moliyaviy natijalari ko'rsatiladi, ular mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan yalpi foyda (zarar)dan (030-satr) davr xarajatlari summasini (040-satr) ayirish hamda asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar summasini (090-satr) qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

"Moliyaviy faoliyatdan daromadlar, jami" moddasi bo'yicha (110-satr) 120, 130, 140, 150, 160-satrlar bo'yicha yakuniy summa aks ettiriladi.

108. "Dividendlar ko'rinishida daromadlar" moddasi bo'yicha (120-satr) hisobi 9520-"Dividendlar ko'rinishida daromadlar" hisobvarag'ida yuritiladigan: O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida boshqa korxonalar faoliyatida ulushbay ishtirok etishdan olingan daromadlar, korxona egaligida bo'lgan aktsiyalar va boshqa qimmatli kog'ozlar bo'yicha dividendlar aks ettiriladi.

"Foizlar ko'rinishida daromadlar" moddasi bo'yicha (130-satr) hisobi 9530-"Foizlar ko'rinishida daromadlar" hisobvarag'ida yuritiladigan, uzoq muddatli va joriy investitsiyalar bo'yicha foizlar ko'rinishida daromadlar ko'rsatiladi.

Asosiy faoliyati mol-mulkn ijaraga (lizingga) berish hisoblangan korxonalar "Uzoq muddatli ijaradan daromadlar (lizing)" moddasi bo'yicha (140-satr), hisobi 9550-"Uzoq muddatli ijaradan daromadlar" hisobvarag'ida yuritiladigan, mol-mulkn uzoq muddatli ijaraga (lizingga) berishdan olgan daromadlarini aks ettiradilar.

"Valyuta kurslaridagi farqlardan daromadlar" moddasi bo'yicha (150-satr) hisobi 9540-"Valyuta kurslaridagi farqlardan daromadlar" hisobvarag'ida yuritiladigan, shu jumladan balansni tuzish sanasida balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan, valyuta operatsiyalari bo'yicha musbat kurslardagi farqlardan daromadlar aks ettiriladi.

"Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar" moddasi bo'yicha (160-satr) hisobi 9510-"Royalti ko'rinishida daromadlar", 9560-"Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan daromadlar". 9590-"Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar" hisobvaraqlarida yuritiladigan: qimmatli qog'ozlarni qayta baholashlarni o'tkazishdan daromadlar, royalti ko'rinishida daromadlar va moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar ko'rsatiladi.

"Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar, jami" moddasi bo'yicha (170-satr) 180, 190, 200, 210-satrlar bo'yichayakuniy summa aks ettiriladi.

"Foizlar ko'rinishida xarajatlar" moddasi bo'yicha (180-satr) hisobi 9610-"Foizlar ko'rinishida xarajatlar" hisobvarag'ida yuritiladigan, banklar kreditlari va qarzlar bo'yicha foizlarni to'lash xarajatlari ko'rsatiladi.

"Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha foizlar ko'rinishida xarajatlar" moddasi bo'yicha (190-satr) hisobi 9610-"Foizlar ko'rinishida xarajatlar" hisobvarag'ida yuritiladigan, uzoq muddatli ijara (lizing) bo'yicha foizlarni to'lash xarajatlari aks ettiriladi.

"Valyuta kurslaridagi farqlardan zararlar" moddasi bo'yicha (200-satr) hisobi 9620-"Valyuta kurslaridagi farqlardan zararlar" hisobvarag'ida yuritiladigan, valyuta

operatsiyalari bo'yicha va balans tuzish sanasida balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan manfiy kurslardagi farqlar aks ettiriladi.

"Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar" moddasi bo'yicha (210-satr) hisobi 9630-"Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish xarajatlari" va 9690-"Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar" hisobvaraqlarida yuritiladigan, qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar hamda moliyaviy faoliyatga doir boshqa xarajatlar aks ettiriladi.

"Umumxo'jalik faoliyatidan foyda (zarar)" moddasi bo'yicha (220-satr) korxonaning umumxo'jalik faoliyatiga doir, asosiy faoliyatdan foyda (zarar) summasiga (100-satr) moliyaviy faoliyatdan daromadlar summasini (110-satr) qo'shish va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar summasini (170-satr) ayirish yo'li bilan belgilanadigan moliyaviy natijalar ko'rsatiladi.

"Favqulodda foyda va zararlar" moddasi bo'yicha (230-satr) favqulodda voqealar natijalari ko'rsatiladi, "Daromadlar (foyda)" ustuni 9710-"Favqulodda foydalar" hisobvarag'ining ma'lumotlari, "Xarajatlar (zararlar)" ustuni esa 9720-"Favqulodda zararlar" hisobvarag'ining ma'lumotlari bo'yicha to'ldiriladi.

"Daromad (foyda) solig'ini to'lashga qadar foyda (zarar)" moddasi bo'yicha (240-satr) +/- belgisini hisobga olgan holda 220 va 230-satrlarni qo'shish natijalari aks ettiriladi. Ushbu satr natijasi daromad (foyda) solig'ining hisob-kitobi chog'ida asos bo'lib hisoblanadi.

"Daromad (foyda) solig'i" moddasi bo'yicha (250-satr) hisobot davri boshidan hisoblab yozilgan, 9810-"Daromad (foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar" hisobvarag'ida hisobga olingan summa ko'rsatiladi.

"Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar" moddasi bo'yicha (260-satr) yil boshidan hisoblab yozilgan, qonun hujjatlariga muvofiq korxona o'z foydasidan to'laydigan soliqlar va yig'imlar summasi aks ettiriladi.

Ular uchun amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq solishning maxsus tartibi nazarda tutilgan korxonalar 260-satr bo'yicha hisoblab yozilgan yagona soliq, yalpi daromaddan soliq, yagona er solig'i summasini aks ettiradilar.

"Hisobot davrining sof foydasi (zarari)" moddasi bo'yicha (270-satr) hisobot davrining pirovard moliyaviy natijasi ko'rsatiladi, u 240-250-260-satrlar ayirmasi sifatida belgilangan.

"Byudjetga to'lovlar bo'yicha ma'lumotnoma"da (280-430-satrlar) korxonalar tomonidan soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab yozilgan va to'lanadigan soliqlar turlari bo'yicha byudjetga to'lovlar ko'rsatiladi. Mazkur ma'lumotnomada 440-satr bo'yicha korxonalar tomonidan hisoblab yozilgan va to'lanadigan byudjetga to'lovlarning yakuniy summasi ko'rsatiladi.

II-BOB. MOLIVAVIY NATIJALAR TO'G'RISIDAGI HISOBOT VA UNING TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

2.1. Xo'jalik subektlarida moliyaviy natijalarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasini tahlili

Respublikamiz iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tkazish bilan korxonalar xo'jalik faoliyatini tahlil qilishni ahamiyati yanada ortadi, chunki bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarishga joriy etilmagan resurslarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish eng dolzarb muammoga aylanadi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi, rivojlanishi ko'p ukkladli bozor iqtisodiyotini barpo etish, har xil shakldagi biznesni va ishbilarmonlikni rivojlantirish shunga olib keladiki, korxonalar faoliyatini moliyaviy natijalari - foyda va rentabellik korxonalar faoliyatini asosiy ko'rsatkichlariga aylanadi.

Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tayotgan bir sharoitda iqtisodiyot sektorlarining uzluksiz faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishi muhim hisoblanadi. Mustaqil mamlakatimiz dastlabki yillardanoq sobiq ittifoq respublikalari singari rejali va markazlashtirilgan iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun qadam qo'ya boshladi. Mustaqillik yillarida respublikamizda iqtisodiy islohotlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o'tishda o'ziga xos va mos bo'lgan bosqichma-bosqich hamda kuchli ijtimoiy muhofaza qilish yo'lini tanladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichida iqtisodiyotni dastlabki isloh qilishning g'oyat muhim yo'nalishlarini belgilab beruvchi asosiy ustivor yo'nalishlar belgilab olindi. SHu jihatdan, O'zbekistonda isloh qilish – mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini tubdan hal etish bilan belgilanadi. Mazkur masalalarni to'g'ri mushohada qilgan holda Prezidentimiz I.Karimov shunday degan edi: - «Oldimizda turgan birinchi va asosiy vazifa - bu izchil iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni mukammallashtirish va ilg'or texnologiyalar bilan qayta qurollantirishning bosh sharti bo'lgan makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishish muammosidir».⁸ deb ta'kidlagan.

⁸ I.Karimov. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida". Toshkent. "O'zbekiston". 1995-y.

Bu, Respublika iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan barcha soha korxonalarining foyda ko'rish maqsadida, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishi yoki xizmat ko'rsatishini talab etadi.

Shu jihatdan olganda, korxonalarning barqaror faoliyat yuritishida, ishlab chiqarish jarayonining barcha elementlari, shu jumladan, buxgalteriya hisobi, audit va iqtisodiy tahlil mukammal ishlashi kerak. Iqtisodiyot sektorida bozor munosabatlarini chuqurlashtirish ushbu sohada iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirishni taqozo etadi. SHu sababli, moliyaviy hisobot shakllari va ularning tahlilini takomillashtirish, uni barcha sektorlarning tuzilmasiga va o'zgarishlariga mos tarzda qayta qurish, korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini o'rganish va nazorat qilishning maqsadli shaklini ishlab chiqish hamda qaror toptirish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Moliyaviy holat davlat, tashkilot va shaxslar o'rtasida bo'ladigan o'zaro munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq pul hisob – kitoblarini ifodalaydi. Moliyaviy holat korxonani mablag' bilan ta'minlanganligi, barcha turdagi mablag'larni maqsadga muvofiq yo'nalishi va ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi, byudjet, bank, homashyo etkazib beruvchilar, xaridorlar va boshqa tashkilotlar bilan olib boriladigan hisob - kitob holati bilan xarakterlanadi. Korxonani moliyaviy holati barqaror, nobarqaror va krizis darajasida bo'lishi mumkin. Moliyaviy barqarorlikka ega bo'lgan korxonalarda ishchi va xizmatchilar bilan ish xaqi, byudjet, bank, mol etkazib beruvchilar bilan bo'ladigan hisob – kitob ishlari o'z muddatida amalga oshiriladi. Moliyaviy intizomga rioya qilmaslik, debitorlik va kreditorlik qarzlarini ortib ketishiga olib keladi va muddati uzaytirilgan qarzlarni surunkali davom etishi bankrotlik alomatlarini vujudga keltiradi.

Korxonalarning moliyaviy holati bu:

- kompleks ravishdagi tushuncha bo'lib, u o'z ichiga keng ko'rsatkichlar tizimini oladi, ular korxonalarning moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligini va ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi;
- korxonalar faoliyatidagi butun ishlab chiqarish va xo'jalik omillarining harakati, ularning o'zaro aloqadorlik natijasidir;

- korxonalarning mo''tadil ishlab chiqarish, tadbirkorlik va boshqa faoliyati uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanish ifodasidir;
- korxonalarning boshqa xo'jalik sub'ektlari, organlari va tashkilotlari bilan o'zaro aloqalarni haqiqiy aks ettirishidir.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot yil bo'yicha har bir chorakka jamlangan hisobda tuziladi. Uni topshirish organlariga soliq idoralari, bank tashkilotlari, yuqori tashkilotlar kiritiladi. O'lchov qiymati *ming so'm* hisobida hisobga olinadi. SHuningdek, ushbu hisobot shakliga spravka, ma'lumotnoma shaklida byudjetga to'lovlari hisobi ham kiritilgan. Unda korxona tomonidan respublika va mahalliy byudjetga to'laydigan soliqlar to'lovi bo'yicha hisobga olingan va to'langani to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.


Bugungi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida respublikamizdagi amaldagi huquqiy me'yorlarga muvofiq xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy natijalarini shakllanishi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan hamda 1999-yil 5-fevralda tasdiqlangan "Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan belgilanadi. ***Mazkur Nizomga muvofiq moliyaviy natijalarning shakllanish qatorlariga quyidagilar kiritiladi:***

1. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija;
2. Asosiy faoliyatning yalpi moliyaviy natijasi;
3. Moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan natija;
4. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan yalpi moliyaviy natija;
5. Favqulodda kutilmagan holatlardan natija;
6. Soliq to'langungacha bo'lgan yalpi moliyaviy natija;
7. Yilning sof foydasi (zarari).

Moliyaviy natijalarning bu tarkib turkumlanishini xalqaro hisob andozalariga nisbatan berilgan deyish mumkin. Bunda asosiy faoliyat moliyaviy natijalar qatoriga korxonaning mahsulot sotishdan oladigan natijasi, asosiy vositalarni sotishdan

oladigan natijasi va boshqa aktivlarni sotishdan oladigan moliyaviy natijasi aks etadi. Davr xarajatlari ulardan chegiriluvchi qator sifatida olinadi.

Nizomda keltirilgan xarajatlar tasnifi eng avvalo buxgalteriya xisobida xarajatlarni to'g'ri va to'liq aks ettirishga, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy xisobotini tuzish uchun uning faoliyati moliyaviy natijalarini (foyda yoki zararni) aniklashga yo'naltirilgandir.



3-chizma. Foydani shakllanishi

Foyda mulk shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalar faoliyatini baholash ko'rsatkichi va rag'batlantirish manbaidir.

Shu tufayli faoliyatni ob'ektiv baholash uchun foyda tarkibi, tuzilishi, uni tashkil etuvchi elementlarini dinamik tarzda chuqur o'rganmoq lozim.

Foyda nafaqat mahsulot birligi uchun qilingan harajatlarni qisqartirish, balki mahsulot sotish hajmini belgilangan assortimentda ortishi, talab va ehtiyojni hisobga

olgan holda yuqori rentabellikka ega mahsulot turlarini ko'proq ishlab chiqarishga erishishga ham bog'liqdir. SHu bois korxona faoliyatining barcha tomonlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar bilan uzviy bog'langan holda foyda kompleks tarzda tahlil etilishi maqsadga muvofiqdir. Foyda miqdorini tahlil etishda gorizonta va vertika tahlil metodlari muhim o'rin tutadi.

Bugungi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida respublikamizdagi amaldagi huquqiy me'yorlarga muvofiq xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy natijalarini shakllanishi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan hamda 1999 yil 5-fevralda tasdiqlangan "Maxsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan belgilanadi. Mazkur Nizomga muvofiq moliyaviy natijalarning shakllanish qatorlariga quyidagilar kiritiladi:

1. Maxsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija;
2. Asosiy faoliyatning yalpi moliyaviy natijasi;
3. Moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan natija;
4. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan yalpi moliyaviy natija;
5. Favqulodda kutilmagan holatlardan natija;
6. Soliq to'langungacha bo'lgan yalpi moliyaviy natija;
7. Yilning sof foydasi (zarari).

Moliyaviy natijalarning bu tarkib turkumlanishini xalqaro hisob andozalariga nisbatan berilgan deyish mumkin. Bunda asosiy faoliyat moliyaviy natijalar qatoriga korxonaning maxsulot sotishdan oladigan natijasi, asosiy vositalarni sotishdan oladigan natijasi va boshqa aktivlarni sotishdan oladigan moliyaviy natijasi aks etadi. Davr xarajatlari ulardan chegiriluvchi qator sifatida olinadi.

Nizomda keltirilgan xarajatlar tasnifi eng avvalo buxgalteriya xisobida xarajatlarni to'g'ri va to'liq aks ettirishga, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy xisobotini tuzish uchun uning faoliyati moliyaviy natijalarini (foyda yoki zararni) aniklashga yo'naltirilgandir.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

Maxsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan maxsulotning ishlab chikarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{YaF=SST-IT}$$

Bunda:

YaF - yalpi foyda;

SST- sotishdan olingan sof tushum;

IT - sotilgan maxsulotning ishlab chikarish tannarxi;

Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda, bu maxsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut, va plyus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshka daromadlar yoki minus boshka zararlar sifatida aniklanadi:

$$\mathbf{AFF = YaF-DX+BD-BZ}$$

bunda,

AFF-asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX-davr xarajatlari;

BD-asosiy faoliyatdan olingan boshka daromadlar;

BZ-asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshka zararlar;

Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$\mathbf{UF=AFF+MD-MX}$$

bunda,

UF - umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD - moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX - moliyaviy faoliyat xarajatlari;

Soliq to'langungacha olingan foyda, u umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plyus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{STF=UF+FP-FZ}$$

bunda,

STF - soliq to'langungacha olingan foyda;

FP - favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ - favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan zarar;

Yilning sof foydasi, u soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi sub'ekt ixtiyorida qoladi, o'zida daromad (foyda)dan to'lanadigan soliqni va minus qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to'langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$SF=STF-DS-BS$$

bunda,

SF - sof foyda;

DS - daromad (foyda)dan to'lanadigan soliq;

BS - boshqa soliqlar va to'lovlar.

Moliyaviy natijalarning shakllanish bo'yicha tahlilni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida berish mumkin (1-jadval).

1-jadval.

“O`ZBEKKO`MIR” AJ ning 2014 yildagi moliyaviy natijalarning tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishlarining tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+,-)	
	Summa, ming so'm	Soliq to'laguncha bo'lgan foydaga nisbatan salmog'i, %	Summa, ming so'm	Soliq to'laguncha bo'lgan foydaga nisbatan salmog'i, %	Summadagi	Salmog'idagi
1	2	3	4	5	6	7
1. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda	22921342	4945.88	18807590	598.42	-4113752	-4347.46
2. Davr xarajatlari va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va xarajatlar	-22521809	4859.67	-15535894	494.32	-6985915	-4365.35
3. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi	399533	86.21	3271696	104.10	+2872163	+17.89
4. Umumxo'jalik faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi	463443	100,0	3142900	100,0	+2679457	-
5. Favquloddagi foyda va zararlar	-	-	-	-	-	-
6. Foyda solig'i to'lagunga qadar foyda (zarar)	463443	100,0	3142900	100,0	+2679457	-
7. Daromad (foyda)dan soliq va boshqa soliqlar	233567	50.40	725380	23.08	+491793	-27.32
8. Hisobot davridagi sof foyda yoki zarar	229876	49.60	2417520	76.92	+2187644	+27.32

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan "O'ZBEKKO'MIR" AJning sof foydasi joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 2187644000 so'mga ortgan. Sof foydaning ortishiga, asosan, davr xarajatlarining o'tgan yilga nisbatan 6985915 ming so'mga kamayishi va natijada asosiy ishlab chiqarish faoliyatining yalpi moliyaviy natijasining o'tgan yilga nisbatan 2872163 ming so'mga oshishi sabab bo'ldi.

2.2. Yalpi foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy natijalari tarkibida asosiy o'rinni mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foyda tashkil etadi. Moliyaviy natijalarning asosiy qismi mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan shakllanlanganligi sababli tahlilda asosiy e'tibor ushbu qatorning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishi va omilli ta'siriga qaratiladi.

Mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan moliyaviy natija mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan sof tushumdan shu mahsulot ish va xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxini chegirish asosida aniqlanadi. Savdo tashkilotlarida moliyaviy natijalarni aniqlashda tovarlarni sotishdan olingan sof tushumdan shu mahsulotlarni sotib olish qiymatini chegirish asosida aniqlanadi.

Tahlilda sotishning uchta qatori xarakterlanadi.

1. Mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan moliyaviy natija;
2. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va sotishdan natija;
3. Boshqa aktivlarni sotishdan olingan natija.

Ularni buxgalteriya hisobida alohida hisob ob'ekti yoki daromadlarning yuzaga chiqish shakli yoki o'rni sifatida tarkiblanishi belgilangan. Bunda asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi va sotilishi, boshqa aktivlarni sotishdan olingan natijalar asosiy ishlab chiqarishning boshqa jarayonlari sifatida qaraladi. Ularni moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda operatsion daromadlar va xarajatlar qatori ko'rsatilishi tartiblangan.

Mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan foyda yoki zarar o'zgarishida omilli tahlilga alohida ahamiyat beriladi.

Mahsulot sotishdan olingan foyda o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir etishi mumkin:

- ▼** Korxonaning o'ziga bog'liq omillar yoki ichki omillar.
- ▼** Korxonaning o'ziga bog'liq bo'lmagan yoki tashqi omillar.

Korxonaning o'ziga bog'liq bo'lgan omillarga mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi, hajmi, assortiment va struktura omillari kiritiladi. Uning o'ziga bog'liq bo'lmagan yoki tashqi omillarga davlatning soliq siyosatining o'zgarishi, baho omili va boshqa omillar kiradi.

Umumiy jihatdan olganda faqat korxonaning o'ziga tegishli va tegishli bo'lmagan ta'sir omillarini tartiblash qiyin. Ularni faqat nisbiy jihatdan qarash mumkin.

Mahsulot, ish va xizmatlarni sotilgan qatorga kiritishda bevosita mulkiy egalik va ularni tasarruf etish ularning kelib chiqiladi. Mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan yalpi foyda taxlilida bevosita mahsulot ishlab chiqarishning marjinallik shartiga ham baho berish mumkin. Mahsulot ishlab chiqarishning marjinallik sharti mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan tushum summasidan barcha o'zgaruvchan xarajatlarni chegirishni xarakterlaydi. Bunda yangidan yaratilgan qiymat faqat o'zgaruvchan qiymatning o'zidan iborat bo'ladi. YA'ni, korxona marjinallik shartida kritik hajm darajasida foyda summasiga ega bo'lmaydi. U faqat ishlab chiqarish xarajatlarini, o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarni qoplash darajasidagi mahsulot hajmigagina ega bo'ladi. Mahsulot ishlab chiqarishning marjinallik sharti korxona ishlab chiqarish rejasi va faoliyat natijaviyligini oldindan belgilash imkonini beradi.


Mamlakatimizda tub islohotlar davriga qadar korxonalar rejali iqtisodiyot sharoitida o'zlarining ishlab chiqarish moliyaviy faoliyatini ma'muriy buyruqbozlik tamoyillariga tayanib yuritib keldi.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi korxonalarda ishlab chiqarish munosabatlarini iqtisodiyotning ob'ektiv qonuniyatlariga buysunga holda tashkil etishga majbur etadi. Katta salmoqqa ega bo'lgan davlat korxonalarini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni jadal boshlanib, korxonalar

turli mulkchilik shakllari ko'rinishida barpo etildi, o'z navbatida bu davlatning mamlakat ishlab chiqarishidagi hajmi qisqarishiga, uning o'rniga nodavlat sektori ishlab chiqarishi ulushi ortib borishiga olib keldi. SHunday qilib, xususiy sektorni kengaytirish, kichik biznes va fermer xo'jaliklari hamda tadbirkorlikni rivojlantirish borasida tub qurilishga erishildi.

Kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish ishlab chiqarishning doimo kengayishini, uning texnikaviy darajasini muntazam ko'tarib turishini talab etadi. Buning uchun ishlab chiqarishda hamma vaqt foydaga erishilishi, realizatsiya qilinishi va undan ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalanish lozim.

Respublikamizda "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida" gi Nizom qabul qilinmasdan oldin korxonalar foydasi quyidagi shakllarda hisobga olinar edi, ya'ni:



Moliyaviy natijalarning bu tarkib turkumlanishini xalkaro hisob andozalariga nisbatan berilgan deyish mumkin. Bunda asosiy faoliyat moliyaviy natijalar katoriga korxonaning mahsulot sotishdan oladigan natijasi, asosiy vositalarni sotishdan

⁹ **Manba:** E. A. Akramov "Korxonalarning moliyaviy holati tahlili", Toshkent-"Moliya"-2004 yil, 153-bet.

oldigan natijasi va boshqa aktivlarni sotishdan oladigan moliyaviy natijasi aks etadi. Davr xarajatlari ulardan chegiriluvchi kator sifatida olinadi.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromad va xarajatlar katoriga korxonaning moliya bozoridagi faolligidan oladigan daromadlari va, mulkiy munosatlardagi ishtirokidan olinadigan daromadlar, erkin almashtiriladigan valyuta resurslarini boshqarishdan oladigan daromadlari, korxonaning moliyaviy faoliyatidan kelib chikadigan turli xarajatlar kiritiladi. Ularning korxona hisob foydasidagi salmogi sungi yillarda tabora oshib bormokda.

Favqulodda kutilmagan holatlardan daromadlar va xarajatlar katoriga korxonaning asosiy va moliyaviy faoliyatidan tashqari, tasodifiy holatlar buyicha oladigan daromad va xarajatlari kiritiladi. Ularning tarkibiga kiritiladigan aniq ko'rsatkichlar yangi Nizomda ifoda etilmagan. Faqat ularning farqlanishiga ta'rif berilgan xalos. Bu tarif esa yuqorida bayon etilgan edi. Ya'ni korxona uchun yaqin uch yillik oraliqda odatiy hol yoki faoliyat turi hisoblanmagan holatlar oladigan daromadlari yoki yuqotishlar ushbu qatorga kiritiladi. Shuningdek, tasodifiy holatlar ham.

Korxonaning o'ziga bog'liq bo'lgan omillarga mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi, hajmi, assortiment va struktura omillari kiritiladi. Uning o'ziga bog'liq bo'lmagan yoki tashqi omillarga davlatning soliq siyosatining o'zgarishi, baho omili va boshqa omillar kiradi.

Umumiy jihatdan olganda faqat korxonaning o'ziga tegishli va tegishli bo'lmagan ta'sir omillarini tartiblash qiyin. Ularni faqat nisbiy jihatdan qarash mumkin.

Mahsulot, ish va xizmatlarni sotilgan qatorga kiritishda bevosita mulkiy egalik va ularni tasarruf etish shartidan kelib chiqiladi. Mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan yalpi foyda tahlilida bevosita mahsulot ishlab chiqarishning marjinallik shartiga ham baho berish mumkin. Mahsulot ishlab chiqarishning marjinallik sharti mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan tushum summasidan barcha o'zgaruvchan xarajatlarni chegirishni xarakterlaydi. Bunda yangidan yaratilgan qiymat faqat o'zgaruvchan qiymatning o'zidan iborat bo'ladi. Ya'ni,

korxona marjinallik shartida kritik hajm darajasida foyda summasiga ega bo'lmaydi. U faqat ishlab chiqarish xarajatlarini, o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarni qoplash darajasidagi mahsulot hajmigagina ega bo'ladi. Mahsulot ishlab chiqarishning marjinallik sharti korxona ishlab chiqarish rejasi va faoliyat natijaviyligini oldindan belgilash imkonini beradi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining kritik darajasi ham odatda ushbu qator bo'yicha o'rganiladi. Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasi deganda korxonaning foyda g'ki zarar olmasdan mahsulot ish va xizmatlar hajmini belgilash darajasi olinadi. Kritik hajm darajasida mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan tushum faqat shu mahsulot ish va xizmatlarga ketgan o'zgaruvchan va doimiy o'zgarmas xarajatlarni qoplashga etishi kuzatiladi.

Kritik hajm darajasi amaliy qo'llovimizga endigina kirib kelag'tgan ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash asosida korxonaning mahsulot ishlab chiqarish rejasi g'ki foyda rejasini oldindan chamalash, belgilashda asosiy ko'rsatkich sifatida foydalanashimiz mumkin.

Tahlilda kritik hajm darajasi va uni aniqlashning usulubiy bog'lanishlari belgilanadi. SHuningdek uning o'zgarishini omilli tahlil etish orqali echimlar beriladi.

Kritik hajm darajasini quyidagi formula shaklida ifoda etish mumkin. Bunda bevosita mahsulotning qiymat ifodasidan g'ki sotish bahosidan kelib chiqiladi. Mahsulotning qiymat ifodasini esa quyidagicha belgilash mumkin:

$$\textbf{Mahsulot qiymati} = \textbf{O'zgaruvchan xarajat} + \textbf{O'zgarmas xarajatlar} + \textbf{foyda}.$$

Bundan kritik hajm darajasiga yuqorida berilgan ta'rifdan kelib chiqqan holda quyidagi bog'lanishni berish mumkin.

$$\textbf{Kritik hajm darajasida mahsulot hajmi} = \textbf{O'zgaruvchan xarajatlar} + \textbf{o'zgarmas xarajatlar} + \textbf{0}$$

Bu bevosita qiymatni iqtisodiy kategoriya sifatida belgilashdagi ifodalashning o'zidan iboratdir. YA'ni:

$$\textbf{Mahsulot hajmi} = \textbf{Doimiy kapital} + \textbf{O'zgaruvchi kapital} + \textbf{Foyda}$$

Kritik hajm darajasida mahsulot ishlab chiqarishning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

- mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlarning o'zgarishi
- mahsulot birligining bahosi
- mahsulotlar miqdor o'zgarishlari
- o'zgarmas xarajalar o'zgarishi va h.k.

Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini quyidagi misol asosida aniqlash mumkin.

2-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish kritik hajm darajasining tahlili

Ko'rsatkichlar	Summasi
Mahsulot birligining bahosi	500
Jami o'zgarmas xarajatlar	100000
Mahsulot birliga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlar	300

ANIQLASH KERAK:

Kritik hajm darajasini

-qiymat ifodasi-?

-miqdor ifodasi -?

Jami o'zgarmas xarajatlar

$$\text{Kritik hajm darajasi} = \frac{\text{Jami o'zgarmas xarajatlar}}{\text{birlikka o'zgaruvchan xarajat}}$$

$$1 - \frac{\text{birlik bahosi}}{\text{birlikka o'zgaruvchan xarajat}}$$

YUqoridagi belgilashlardan kritik hajm darajaasini aniqlash mumkin.

$$\text{Kritik hajm} = \frac{100000}{300} = 250000 \text{ so'm}$$

$$1 - \frac{500}{300}$$

Kritik hajm darajasining qiymat ifodasini uning birlik bahosiga bo'lish asosida kritik hajm darajasida mahsulot miqdorini aniqlash mumkin.

$$\text{Kritik hajm} = \frac{250000}{500} = 500 \text{ dona}$$

Uning o'zgarishini bevosita yuqoridagi formula asosida o'zaro bog'lanishlarda aniqlash mumkin.

3-jadval

Mahsulot sotishdan olingan foyda va uning o'zgarishini omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili o'tgan yil tannarxida	Hisobot yili
1	2	3	4
1. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum, ming so'm	1452513	2578146	3040381
2. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm	929608	1789537	2168322
3. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda, ming so'm	522905	788609	872059

Tahlil etuvchining tushunishi osonroq bo'lishi uchun quyidagi bog'lanishlarni keltirish o'rinlidir.

4-jadval

Mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan yalpi foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yilida sotish hajmi o'tgan yil tannarxida	Hisobot yili
1	2	3	4
1. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum	Q_0P_0	Q_1P_0	Q_1P_1
2. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi	Q_0S_0	Q_1S_0	Q_1S_1
3. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda	$Q_0(P_0 - S_0)$	$Q_1(P_0 - S_0)$	$Q_1(P_1 - S_1)$

Bu yerda:

Q – mahsulot hajmi;

S – mahsulot birligining tannarxi;

P – mahsulot birligining bahosi.

1. Mahsulot hajmining o'zgarishi:

$$788609 - 522905 = +265704$$

2. Baho va ishlab chiqarish tannarxi o'zgarishining yalpi foyda o'zgarishiga ta'siri:

$$872059 - 788609 = +83450$$

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan korxonada joriy yilda mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda miqdori o'tgan yilga nisbatan 349154 ming so'mga o'sgan. Bu o'zgarish quyidagi omillar hisobiga bo'lgan: ya'ni, mahsulot ishlab chiqarish hajmining miqdor jihatidan o'zgarishi hisobiga mahsulot sotishdan olingan foyda summasi 265704 ming so'mga ortgan. Umuman olganda korxonaning mahsulot sotishdan olingan yalpi foydasini ortishiga asosan mahsulot hajmining miqdorini o'sishi sabab bo'lgan. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foydaning o'sganlinigi ijobiy holat sifatida baholamoq lozim.

2.3. Asosiy va umumxo'jalik faoliyatidan olingan moliyaviy natijalar va ularga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Foydani shakllanishida asosiy ishlab chiqarish faoliyatining natijasi salmoqli o'rinni egallaydi.

$$\mathbf{AFKF=YAF-DX+BD}$$

Bunda:

AFKF - asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda;

YAF - yalpi foyda;

DX - davr harajatlari;

BD - asosiy faoliyatning boshqa daromadlari

Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foydaga bir necha omillar ta'sir etadi. Omillar ta'sirini hisoblashdan oldin analitik jadval orqali sotishdan kelgan sof tushumda sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarhi, sotish harajatlari, ma'muriy harajatlar, operatsion xarajatlar va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan ko'rilgan daromadlarning hisobot davri va o'tgan yillardagi tutgan ulushlari aniqlanadi.

So'ngra asosiy faoliyatdan ko'rilgan foydani sof tushumga bo'lish orqali rentabellik darajasi, ya'ni tushumning har so'miga to'g'ri keladigan foyda miqdori aniqlanadi. Aniqlangan ko'rsatkich ishtirokida har bir omilning foydaga bo'lgan ta'siri hisoblab topiladi.

5-jadval

Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foydaga ta'sir etuvchi omillar tahlili

T №	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'tgan yildan farqi	Tutgan ulushi, %		Ulush farqi, %
					o'tgan yil	hisobot yili	
	A	1	2	3	4	5	6
1	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan kelgan sof tushum	4547,8	6548,9	+2001,1	100	100	-
2	Sotilgan mahsulotlar tannarhi	2865,5	4449	+1583,5	63,0	67,94	+4,94
3	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	1682,3	2099,9	+417,6	x	x	x
4	Sotish harajatlari	54,2	66,3	+12,1	1,19	1,01	-0,18
5	Ma'muriy xarajatlar	381,7	506,2	+124,5	8,40	7,73	-0,67
6	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari va operatsion harajatlari	-255,9	-219,7	-36,2	5,63	3,35	-2,28
7	Asosiy faoliyatning foydasi (3 satr-4-5 ± 6)	990,5	1307,7	+317,2	21,78	19,97	-1,81

Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda o'tgan yilga nisbatan 317,2 mln. so'mga quyidagi omillar ta'sirida ortgan.

1. Mahsulot sotish hajmi. Bu omilning foydaga bo'lgan ta'sirini aniqlashda inflyatsiya darajasini hisobga olish lozim. Masalan, inflyatsiya darajasi 10 foizni tashkil etgan bo'lsa, baho indeksi 1,10 ga teng bo'ladi.

$$ib = \frac{100 + 10}{100} = 1,1\%$$

Hisobot davridagi sotishdan kelgan tushum solishtirma bahoda quyidagicha aniqlanadi:

$$T = T_1 : ib$$

bunda T – sotishdan kelgan tushum solishtirma bahoda;

T_1 - hisobot davridagi sotishdan kelgan tushum;

ib – baho indeksi

$$T = 6548,9 : 1,10 = 5953,5 \text{ mln. so'm}$$

Demak, hisobot davrida mahsulot sotishdan kelgan tushum baho o'zgarishi hisobiga 595,4 mln.so'mga ortgan. $6548,9 - 5953,5 = +595,4$ mln. so'm

Sotish hajmining o'zgarishini (baho o'zgarishidan tashqari) foydaga bo'lgan ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{(2001,1 - 595,4) \cdot 21,78}{100} = +306,2 \text{ mln.so'm}$$

2. Baho o'zgarishi

$$\frac{+ 595,4 \cdot 21,78}{100} = +129,6 \text{ mln. so'm}$$

3. Sotilgan mahsulot tannarxining o'zgarishi

$$\frac{6548,9 \cdot (+4,94)}{100} = +323,5 \text{ mln. so'm}$$

Tannarx ortishi tufayli foyda 323,5 mln. so'mga kamaygan.

4. Sotish harajatlarini o'zgarishi

$$\frac{6548,8 \cdot (-0,18)}{100} = -11,8 \text{ mln. so'm}$$

Foyda 11,8 mln.so'mga ortadi.

5. Ma'muriy harajatlar o'zgarishi

$$\frac{6548,9 \cdot (-0,67)}{100} = -43,8 \text{ mln.so'm}$$

Foyda 43,8 mln.so'mga ortadi.

6. Operatsion xarajatlarni kamayishi hisobiga foyda 149,3 mln.so'mga ortgan.

$$\frac{6548,9 \cdot (-2,28)}{100} = -149,3 \text{ mln.so'm}$$

6-jadval

Omillar ta'siri natijalarini quyidagi jadvalga joylashtiramiz

T №	Omillar ta'sirining natijalari	Summa, mln.so'm
	Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foydani o'tgan yildan farqi	+317,2
	SHu jumladan:	
1	Sotish hajmini ortishi	+306,2
2	Mahsulot bahosining o'zgarishi (INFLYATSIYA)	+129,6
3	Sotilgan mahsulot tannarxini ortishi	-323,5
4	Sotish xarajatlarini pasayishi	+11,8
5	Ma'muriy xarajatlarni kamayishi	+43,8
6	Operatsion xarajatlarni kamayishi	+149,3

Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar va xarajatlar 9510-9590 "Moliyaviy faoliyatdan daromadlar" hisobvaraqlarida alohida aks ettiriladi. Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlar bevosita korxonaning asosiy faoliyatiga daxldor emas.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarga «Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq quyidagilar kiradi:

1. Olingan royaltlar va sarmoya transferti;
2. O'zbekiston Respublikasi xududida va uning tashqarisida boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida ulush qo'shgan holda qatnashishdan olingan daromad, aktsiyalar bo'yicha dividendlar va obligatsiyalar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektga tegishli qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar;
3. Mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to'lovini olish);
4. Valyuta schetlari, shuningdek chet el valyutalaridagi operatsiyalari bo'yicha ijobiy kurs tafovutlari;
5. Sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, shu'ba korxonalarga va x.k) mablag'larni qayta baholashdan olingan daromadlar;
6. Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar

Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar soliqqa tortishda yalpi daromadga kiritilmaydi.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar hisobi «Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar» nomli 2-son BHMS, «Ijara hisobi» nomli 6-son BHMS, «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» nomli 12-son BHMSlar asosida tartibga solinadi.

Moliyaviy natijalar tarkibiga quyidagi ko'rinishdagi moliyaviy investitsiyalarga oid daromadlar kiritiladi:

- uzoq muddatli va joriy investitsiyalar bo'yicha foizlar, royalti, dividendlar va ijara to'lovlari bo'yicha tushumlar;
- joriy moliyaviy investitsiyalarning sotilishidan olingan daromad
- qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalarning xarid qiymati va bozor yuzasidan eng kami bo'yicha aks ettirilishi uchun zarur bo'lgan bozor qiymatigacha pasaytirilishi va qaytadan qiymatning o'zgartirilishi;
- balans qiymatining pasaytirilishi, uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar qiymatining vaqtinchalik pasaytirilishi va bu kabi pasaytirishlar qaytadan o'zgartirilishi hollari bundan mustasno.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan hisob stavkalari darajasida va ulardan ortiqcha olingan qisqa muddatli hamda uzoq muddatli kreditlar bo'yicha, shu jumladan, to'lov muddati o'tgan va uzaytirilgan ssudalar bo'yicha to'lovlar.
- Mulkni uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) bo'yicha foizlarni to'lash xarajatlari.
- CHet el valyutasi bilan muomalalar bo'yicha salbiy kurs tafovutlaridan zararlar.
- Sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, sho'ba korxonalarga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar.
- O'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlari.
- Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlari, shu jumladan, salbiy diskont.

Moliyaviy faoliyatdan olingan natija korxona faoliyat natijaviyligining alohida hisob qatori sifatida tarkiblanadi va tahlil etiladi. Moliyaviy faoliyatdan olingan foyda va zararlar korxonaning fond bozori, moliya bozoridagi faoliyatidan keladigan natijalarni o'z ichiga oladi. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar qatori «Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan xarajatlar, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq tarkiblanadi. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarning korxonalarning jami hisob foydasi tarkibidagi salmog'i so'nggi yillarda bir qadar o'sib bormoqda. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin. Masalan, boshqa korxonalar faoliyatida hissali qatnashishdan olingan daromadlar, valyuta mablag'larining kurs o'zgarishidan olingan daromadlar, boshqa korxonalarga, sho'ba va uyushma korxonalarga berilgan qarzlar bo'yicha olingan daromadlar, foizlar bo'yicha olingan va to'langan daromadlar, aktsiyalar bo'yicha olingan dividendlar summasi va h.k.

Tahlilda ularning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlariga mutloq va nisbiy o'zgarishlariga baho beriladi hamda uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi.

Ta'sir etuvchi omillar har bir tarkib qator bo'yicha alohida va umumiy asosda o'rganiladi.

Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar moliyaviy natijalar to'g'risidagi moliyaviy hisobotdan va uning qatorlari bo'yicha berilgan izohlardan olinadi.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xo'jalik muomalalarini iqtisodiy tahlil qilishdan maqsad, ularni buxgalteriya hisobotida yuritilish metodikasi va ulardan olingan daromadlar buyicha soliqqa tortilish tartiblari Respublikamizda tekshirilayotgan davrda, harakatdagi me'yoriy hujjatlarga mos kelishi, shu bilan birga moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ishonchliligi to'g'risida tulaqonli fikr shakllanishi bo'lib hisoblanadi.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun tahlilchi xo'jalik yurituvchi sub'ektning ma'lum bir davrga tuzilgan moliyaviy hisobotini o'rganib, undagi amalga oshirilgan

moliyaviy faoliyat bo'yicha xo'jalik muomalalariga tegishli ko'rsatkichlarning to'g'riligi, ishonchliligi va to'liqliligi to'g'risida xulosa berishi uchun quyidagi masalalarni echishga to'g'ri keladi:

- Moliyaviy qo'yilmalarni korxona aktivlari hisobiga to'g'ri olib borilganini baholash;
- Moliyaviy faoliyat bo'yicha xo'jalik muomalalarini turlicha turkumlanishi nuqtai nazaridan ularni buxgalteriya hisobida to'g'pi turkumlanishini baholash;
- Buxgalteriya hisobiga kirim kilish davrida ularning qiymatini to'g'ri shakllanganligini aniqlash;
- Moliyaviy faoliyat bo'yicha amalga oshirilgan xo'jalik muomalalarining qonuniyligi va korxona uchun samaradorligiga baho berish;
- Moliyaviy faoliyat bo'yicha xo'jalik muomalalarining sintetik va analitik hisobi holatini baholash;
- xo'jalik muomalalarini buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda to'liq va to'g'pi aks ettirilishini baholash;
- Moliyaviy qo'yilmalarni inventarizatsiyasi va uning natijalarini hisobda aks ettirilishining to'g'piligini tekshirish;
- Moliyaviy faoliyat bo'yicha xo'jalik muomalalaridan olingan daromadva xarajatlarni hisobda to'liq va o'z vaqtida aks ettirilishini tekshirish;
- Moliyaviy faoliyat bo'yicha xo'jalik muomalalarining qayta baholanishini to'g'pi va asosligini o'rganish;
- Moliyaviy faoliyat bo'yicha xo'jalik muomalalari bo'yicha soliq qonunchiligiga rioya etilishini baholash.

2.4. Sof foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Bozor munosabatlari sharoitida har bir xo'jalik sub'ekti o'z faoliyati natijasida sof foydaga erishishni ko'zlaydi. Shu sababli ham sof foyda miqdorini o'rganish va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish korxona samaradorligini oshirishga olib keladi. Korxona ixtiyorida qoladigan va uning erkin tasarrufidagi foyda sof foyda deyiladi. Ushbu ko'rsatkich soliq to'loviga qadar bo'lgan foyda

summasidan foyda (daromad)dan soliq va boshqa soliqlar va ajratmalar summasini chegirish asosida aniqlanadi. Sof foyda tahlilida uning o'tgan yillarga, shuningdek, korxona biznes rejasi ko'rsatkichlariga nisbatan o'zgarishlari o'rganiladi. Moliyaviy natijaviylikning ushbu yakuniy qatori barcha ichki va tashqi axborotdan foydalanuvchilar e'tiboridagi masala hisoblanadi.

Tashqi axborotdan foydalanuvchilar korxonaning foydalilik darajasiga, o'z aktivlarini maqsadli boshqarishning shartlarini belgilashga ham jiddiy ahamiyat berishadi. Masalan, korxona mulkida hissali qatnashuvchilar aktsiya egalari kelishuviga yoki xususiy kapitaldagi ulushiga qarab taqsimlanadigan hisob foydasining holatiga korxona ixtiyorida qoladigan sof foyda bilan qiziqsalar, investitsiya homiylari esa korxona faoliyatining barqarorligi va o'sish darajalariga ko'proq qiziqadilar.

Bugungi kunda korxona sof foydasining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- mahsulot, ish va xizmatlarni sotish hajmining o'zgarishi;
- mahsulot, ish va xizmatlar bahosining o'zgarishi;
- mahsulot, ish va xizmatlar ishlab chiqarish xparajatlarining o'zgarishi;
- davr xarajatlarining o'zgarishi;
- moliyaviy faoliyatdan olinadigan foyda va zararlarning o'zgarishi;
- favqulodda foyda va zararlar o'zgarishi;
- foydadan olinadigan soliqlar va solikli to'lovlarning o'zgarishi va hakoza.

Tahlil etishda har bir omilning sof foyda o'zgarishidagi mutloq qiymatlari aniqlanadi. Ularning o'zgarishlariga baho berish orqali korxonada foydani o'stirish yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi o'rganiladi.

Sof foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili
(ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili	Farqi (+,-)
1	2	3	4
1. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda	522905	872059	+349154
2. Davr xarajatlari	-201985	-388162	+186177
3. Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va yo'qotishlar	-79617	-82828	+3211
4. Moliyaviy faoliyatdan foyda va zararlar	34354	51975	+17621
5. Favquloddagi foyda va zararlar	-	-	-
6. Foydadan soliq va boshqa soliq hamda ajratmalar	245414	427644	+182230
Joriy yilning sof foydasi	30243	25400	-4843

Jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa kilish mumkinki, tahlil qilinayotgan xo'jalik sub'ektida hisobot davrida sof foyda hajmi o'tgan yilga nisbatan 4843 ming so'mga kamaygan. Uning o'zgarishiga har bitta ko'rsatkichning ta'sirini farq qatoriga qarab baholash mumkin. Sof foydaning kamayishiga asosan davr xarajatlarining keskin oshib ketganligi hamda foydadan to'langan soliq summasining o'tgan yilga nisbatan deyarli ikki marta ko'payganligi sabab bo'lgan. Masalan, mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foyda summasining o'tgan yilga nisbatan 349154 ming so'mga o'sishi sof foyda summasining shuncha o'zgarishiga olib kelgan. Davr xarajatlari, asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan olingan zararlar summasining, favqulodda zararlar summasining, foydadan soliqlar summasining o'tgan yillarga nisbatan o'sishi natijasida korxona sof foydasi o'tgan yilga nisbatan 4843 ming so'mga kamaygan.

Barcha omillar ta'sirida sof foyda summasi o'tgan yilga nisbatan 4843 ming so'mga kamaygan. Demak, korxonada foydani o'stirish yuzasidan 371618 ming so'mlik ichki rezerv mavjud deyish mumkin. Agar korxona ushbu qatorlar bo'yicha o'zining oldingi yil ko'rsatkichlarini saqlaganda edi yana qo'shimcha tarzda shuncha foyda olishi mumkin edi.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning kontseptual asosga va “Asosiy xo’jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar” nomli 2-son BHMS da belgilanishiga, daromadlar, hisobot davri mobaynida, aktivlarning ko’payishi yoki majburiyatlarini qisqarishi ko’rinishida iqtisodiy foydalarning ko’payishidir, ular o’z kapitalining ko’payishiga olib keladi, bundan o’z kapitali egalari tomonidan qo’yilmalar bilan bog’liq ko’payishlar mustasno.

Daromadlar turli aktivlarning ko’payishi ko’rinishida yuzaga keladi; bular nafaqat pul mablag’lari, balki, realizatsiya qilinayotgan tovarlar va xizmatlarning o’rniga olingan tovarlar va xizmatlar ham bo’lishi mumkin; agar tovarlar va xizmatlar haqi xaridor tomonidan to’liq to’lanmagan bo’lsa, bunday xollarda, debitorlik qarzlari ham bo’lishi mumkin. Daromadlar, shuningdek, majburiyatlarni kamaytirish ko’rinishida olinishi mumkin, bu esa korxonaning kapitaliga aktivlarning ko’payishi kabi ta’sir ko’rsatadi. Korxonaning daromatlari va harajatlari hisobi, moliyaviy natijalarni shakllantirish va ulardan foydalanish hisobvaraqlar rejasining so’nggi, to’qqizinchi bo’limida, 9000-9900- son hisobvaraqlarda amalga oshiriladi.

Mazkur hisobvaraqlar tranzit (vaqtinchalik) hisob varaqlardir, hisobot oyining oxiriga borib ularning barchasi (bundan 92 – hisobvaraq mustasno) yakuniy moliyaviy natijani aniqlash 9910-hisobvaraq bilan yopiladi, uning sal’dosi keyin 8710- “Hisobot davrining taqsimlangan foydasi (qoplanmagan zarari)” hisobvarag’iga o’tkaziladi. Buxgalteriya hisobotida aks etgan quyidagi harajat ma’lumotlariga e’tibor qaratilmog’i lozim.

Hisobotlarda odatdagi xo’jalik faoliyatining borishi chog’ida yuzaga keluvchi harajatlardan tashqari, kelgusida biror bir iqtisodiy manfaatlarni hosil qilmaydigan harajatlardan tashkil topgan zararlar ham bo’lishi mumkin. Ularga quyidagi uchchala mezonlardan biriga javob beruvchi harajatlar kiritiladi:

- kelgusida ma’lum bir daromadlarni keltirib chiqarmaydigan;
- aktivlar sifatida tan olib bo’lmaydigan (kelgusi davrlar daromatlari yoki oldindan to’langan boshqa harajatlarga o’xshash);
- tashkilot balansida mol-mulkning o’sishiga kiritish mumkin bo’lmagan.

Daromadlik, foydalilik bir xil ma'noga ega emas. Ayrim iqtisodga oid manbalarda daromadlik, foydalilik mazmun jihatdan bir deb qaraladi. Masalan, korxonaning ma'lum davrdagi jami daromadi, sof foydasini balans aktiviga nisbati bir xilda nomlanmaydi.

$$\text{Актив даромадлиги} = \frac{\sum \text{даромад}}{A}$$

$$\text{Баланс активи рентабеллиги} (P_A) = \frac{C\Phi \cdot 100\%}{A}$$

8-jadval

Korxona aktivi, kapitali, majburiyatlari daromadligi va rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblash usuli

T №	Ko'rsatkich nomi	Buxgalteriya hisoboti shakli ma'lumotlari asosida hisoblash tartibi
1	Balans aktivi daromadlik koeffitsienti, (dak)	$d_{ak} = \frac{\sum \text{Даромад (шакл №2)}}{\text{Активнинг ўртача йиллик қиймати}} = \frac{\sum \text{Дар}}{A}$
2	Xususiy kapital daromadlik koeffitsienti, (dxk)	$d_{xk} = \frac{\sum \text{Даромад (шакли №2)}}{\text{Хусусий капиталнинг ўртача йиллик қиймати}} = \frac{\sum \text{Дар}}{XK}$
3	Qarz kapitali daromadlik koeffitsienti, (dqk)	$d_{kk} = \frac{\sum \text{Даромад (шакл №2)}}{\text{Қарз капиталининг ўртача йиллик қиймати}} = \frac{\sum \text{Дар}}{KK}$
4	Sof aktiv daromadlik koeffitsienti, (dca)	$d_{ca} = \frac{\sum \text{Даромад (шакл №2)}}{\text{Соф активнинг ўртача йиллик қиймати}} = \frac{\sum \text{Дар}}{CA}$
5	Balans aktivining rentabellik koeffitsienti, (Rak)	$P_{ak} = \frac{\text{Солиқ тўлагунга қадар фойда}}{\text{Активнинг ўртача йиллик қиймати}} = \frac{\Phi \text{ солиқ } TK}{A}$
6	Xususiy kapital rentabellik koeffitsienti, (Rxk)	$P_{xk} = \frac{\text{Соф фойда}}{\text{Хусусий капиталнинг ўртача йиллик қиймати}} = \frac{C\Phi}{XK}$
7	Qarz kapitalining rentabellik koeffitsienti, (Rqk)	$P_{kk} = \frac{\text{Соф фойда}}{\text{Қарз капиталининг ўртача йиллик қиймати}} = \frac{C\Phi}{KK}$
8	Sof aktiv rentabellik koeffitsienti, (Rsa)	$P_{ca} = \frac{\text{Соф фойда}}{\text{Соф активнинг ўртача йиллик қиймати}} = \frac{C\Phi}{CA}$

8-jadvalda keltirilgan rentabellik turlaridan tashqari quyidagi rentabellik ko'rsatkichlarini aniqlash, ularni o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarini hisoblash kompleks iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Sotishdan ko'rilgan rentabellik, % =

$$= \frac{\text{Сотишдан кўрилган ялпи фойда}}{\text{Махсулот сотишдан соф тушум}} \times 100\% = \frac{\Phi N}{N} \cdot 100\%$$

Qilingan harajat qaytimi, % =

$$= \frac{\text{Сотишдан кўрилган ялпи фойда}}{\text{Сотилган махсулот таннарни}} \times 100\% = \frac{\Phi N}{CMT} \cdot 100\%$$

Jami daromadga nisbatan rentabellik, % =

$$= \frac{\text{Соф фойда}}{\text{Жами даромад}} \times 100\% = \frac{C\Phi}{\sum \text{Даромад}} \cdot 100\%$$

Jami harajatga nisbatan rentabellik, % =

$$= \frac{\text{Со фойда}}{\text{Жами харажат}} \times 100\% = \frac{C\Phi}{\sum \text{Харажат}} \cdot 100\%$$

Mahsulot birligini rentabelligi, % =

$$= \frac{\left(\begin{array}{cc} \text{Махсулот} & - & \text{Махсулот} \\ \text{бахоси} & & \text{таннарни} \end{array} \right)}{\text{Махсулот бирлигини бахоси}} \times 100\% = \frac{\Phi}{B} 100\%$$

III-BOB. MOLIVAVIY NATIJALAR TO'G'RSIDA HISOBOT VA UNING AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Moliyaviy natijalar shakllanishi auditorlik va uni takomillashtirish

Auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimining birinchi (yuqori) pog'onasida O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni (yangi tahriri) turadi. Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 26-maydagi qaroriga muvofiq qabul qilingan bo'lib, 29-moddadan iborat.

«Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish maqsadida qabul qilingan hukumat qarorlarini ham ushbu tizimning birinchi pog'onasiga kiritish mumkin. Jumladan, 22-sentyabr 2000-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 365-sonli «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi.

Shuningdek, ushbu qarorga muvofiq «Auditorlik xulosalarini soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan hisobga olish tartibi to'g'risidagi Nizom», «Majburiy auditorlik tekshiruv o'tkazishdan bo'yin tovlaganligi uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan jarima undirish tartibi to'g'risidagi Nizom» va «Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish to'g'risidagi Nizom» tasdiqlangan.

Ushbu qarorga muvofiq: ijobiy auditorlik xulosasi mavjudligi xo'jalik yurituvchi sub'ektining moliya-xo'jalik faoliyati soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan oxirgi tekshirish o'tkazilgandan keyin kamida 24 oydan oldin tekshirilmasligi uchun asos hisoblanadi;

Buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzish auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan mikrofirmalarning moliya-xo'jalik faoliyati soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan tegishli auditorlik tashkiloti albatta jalb qilingan holda tekshiriladi. Bunda moliyaviy hisobotning to'g'riligi uchun auditorlik tashkiloti javob beradi.

Qarorning 3-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi auditorlik faoliyatini litsenziyalash maxsus vakolatli davlat organi etib tasdiqlangan

va unga quyidagi funktsiyalar yuklatilgan:

Ø o'z vakolatlari doirasida auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni, shu jumladan auditorlik faoliyatining milliy standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

Ø auditorlik tashkilotlari tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya qilinishini nazorat qilish;

Ø auditorlarning respublika jamoat birlashmasi bilan kelishgan holda auditorlar malaka sertifikatini olish uchun o'qitish dasturlarini va malaka imtihonlari topshirish tartibini tasdiqlash;

Ø auditorlik faoliyatini amalga oshirishga berilgan litsenziyaning, auditorlar malaka sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish va bekor qilish;

Malaka sertifikatiga ega bo'lgan auditorlar reestrini va auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari hisobi-ni yuritish.

Auditorlik tashkilotlari ustav kapitalining eng kam miqdori eng kam oylik ish haqining kamida 1200 baravari miqdorida belgilangan. Bunda yangidan tashkil etiladigan auditorlik tashkilotlari davlat ro'yhatidan o'tkazilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan sarmoyasini shakllantirishlari zarur.

Moliyaviy natijalarning shakllanishi va foydaning ishlatilishi bo'yicha muomalalarni tekshirish uchun ma'lumotlar manbai bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

Ta'sis hujjatlari, ta'sischilarning majlislari qaydnomalari, buyruqlar, qarorlar, kassir hisobotlari ilova qilingan birlamchi hujjatlari bilan (kirim va chiqim kassa orderlari, to'lov qaydnomalari, kvitantsiya va boshqalar), so'mlik va valyuta hisobvaraqlari bo'yicha bank ko'chirmalari ilova qilingan birlamchi hujjatlari bilan (hisob varaqalari, to'lov topshiriqnomalari, avizo va boshqalar), 9000-9900 va boshqa hisobvaraqlar bo'yicha hisob registrlari (vedomostlar, jurnal-orderlar, mashinogrammalar), Bosh kitob, «Buxgalteriya balansi» (1-shakl), «moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» (2-shakl), alohida soliqlar bo'yicha hisob-kitob hujjatlari va boshqalar.

**O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tashkil etishning
me'yoriy tizimi.**

Tartibga solish darajasi	Tartibga solish va qo'llanish doirasi	Me'yoriy hujjat turi va nomi
I	Moliyaviy-iqtisodiy tizimda auditning o'rni, maqsadi va vazifalarini belgilaydi	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING «AUDITORLIK FAOLIYATI TO'G'RISIDA» QONUNI yangi tahriri O'zR 26.05.2000 y. 78-II-son Qonun. Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan O'zR 13.12.2002 y. 447-II-son Qonuni, O'zR 04.04.2006 y. O'RQ-28-son Qonuni, O'zR 10.10.2006 y. O'RQ-59-son Qonuni, O'zR 17.09.2007 y. O'RQ-110-son Qonuni, O'zR 09.09.2009 y. O'RQ-216-son Qonuni
II	Auditorlik xizmati bozoridagi barcha sub'ektlarga majburiy, hamma ob'ektlar uchun taalluqli auditning me'yoriy talablarini hamda auditorlik faoliyatini tashkil etish uslubiyotini belgilaydi	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AUDIT MILLIY ANDOZALARI
		XALQARO AUDIT ANDOZALARI
		Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish tartibi to'g'risida NIZOM O'zR VM ning 2000 yil 22 sentyabrdagi 365-son qarori (O'zR VM 22.05.2006 y. 92-son Qarori, O'zR Prezidentining 02.07.2008 y. PQ-907-son Qarori o'zgartirishlari bilan)
	Auditorlik tashkilotlarining auditorlik faoliyatidagi umumiy tartiblarni belgilaydi	AUDITORLIK TASHKILOTLARI TO'G'RISIDA NIZOM O'z. Res.Prezidentining 4.04.2007 yil PQ-615-son qarori
III	Professional birlashmalar darajasida auditorlik faoliyatning maxsus masalalarini tartibga soladi	O'ZBEKISTON AUDITORLARINING KASBGA OID AHLOQ KODEKSI O'BAMA.26.08.2005y., O'AP 25.06.2005y.
		KORXONALARDAGI ICHKI AUDIT XIZMATI TO'G'RISIDA NIZOM Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qaroriga 2-ILOVA
		Auditor malaka sertifikatini berish tartibi to'g'risida NIZOM 13.10.2000 y. N 977 (quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan O'zR AV 20.04.2004 y., O'zR AV 18.10.2005 y.)
IV	Auditorlik tashkilotlarining majburiy audit va boshqa audit xizmatlarini bajarishini tartibga soladi	AUDITORLIK TASHKILOTLARINING ICHKI STANDARTLARI

Moliyaviy natijalarning shakllanishi va foydaning ishlatilishining to'g'riligini tekshirish jarayonida auditor quyidagi masalalarni hal qilishi lozim:

- tayyor mahsulot (ish, xizmat)larni, asosiy vositalar va boshqa mulklarni sotishdan olingan foyda(zarar) ni aniqlanishi va aks ettirilishining to'g'riligini aniqlash;
- operatsion va boshqa muomalalardan daromad va harajatlarni hisobga olishning to'g'riligini aniqlash;
- foyda hisobiga shakllantiriladigan turli fondlar mablag'larining shakllanishi va ishlatilishining asosililigini aniqlash.

Sotishdan olingan foydaning aniqlanishini to'g'riligini tekshirish natijalari sezilarli darajada korxonada o'tkazilgan auditning oldingi bosqichlari nazorat jarayonlari sifatiga bog'lik, jumladan, tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va sotish jarayoni, asosiy vositalar va boshqa mulkning chiqib ketishini tekshirish, hisob-kitob muomalalari auditi nazoratlari bosqichlarida. Mahsulot sotishdan tushgan sof tushum va uning tannarxini, boshqa mulkni sotishdan yuzaga kelgan tushum va harajatlarni to'g'ri aniqlash, shu muomalalar bo'yicha tahminiy moliyaviy natijani aniq va ob'ektiv hisoblashga yordam beradi. Auditorga faqatgina 9000-«Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar», 9100-«Sotilgan mahsulotlarning tannarxi», 9200-«Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning sotilishi va turli chiqimi», 9300-«Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar» hisobvaraqlari bo'yicha ochilgan hisob registrlari bo'yicha aks ettirilgan summalarni 9900-«YAkuniy moliyaviy natija» hisobvarag'i bo'yicha ochilgan hisob registrlardagi analog summalar bilan mosligini solishtirib chiqishgina qoladi.

Tekshiruvning ushbu bosqichida auditor asosiy diqqatni asosiy faoliyatga tegishli bo'lmagan muomalalardan vujudga kelgan daromad va harajatlar tahliliga asosiy diqqatni qaratishi lozim (9 va 10–jadvallarga qarang).

Asosiy faoliyatga tegishli bo'lmagan daromadlar tarkibi va ularni korxona soliqa tortiladigan bazasiga kiritish tartibi

Asosiy faoliyatga tegishli bo'lmagan daromadlar nomlari	Soliqqa tortish uchun hisobga olinadigan summalar
1. Boshqa korxonalar faoliyatida ulushli ishtirokidan daromadlar, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlardan olingan dividend va foizlar	Hisoblangan
2. Mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar	Hisoblangan
3. Jarima, penya va boshqa xo'jalik shartnomalarini bajarmaganlik uchun boshqa sanksiyalar	Hisoblangan(tan olingan yoki sud qarori asosida)
4. Keltirilgan zararni qoplash bo'yicha daromadlar	Sud qarori asosida hisoblangan
5. Hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillar foydasi	Hisobot yilida hisoblangan
6. Ijobiy kurs farqlari	Hisoblangan
7. Berilgan qarzarlar bo'yicha foizlar	O'tkazilgan
8. Oldin shubhali deb tan olingan debitorlik qarzining qoplanishi hisobiga olingan summalar	O'tkazilgan; kirim qilingan
9. Boshqa yuridik shaxslardan tekinga olingan pul mablag'lari va boshqa mulk	

Auditor tegishli asosiy faoliyatga tegishli bo'lmagan daromadlar va harajatlarning hisobda aks ettirilishining asoslanganligini aniqlashi lozim. Buning uchun bunday daromad va harajatlar vujudga kelishi va hajmini tasdiqlovchi turli hujjatlarni o'rganib chiqish zarur.

Korxonalar faoliyati yakuniy moliyaviy natijasining to'g'ri aniqlanganligini tekshirishda auditor ishga yuzaki qaramasligi lozim. Moliyaviy natijalar shakllanishi auditori auditning o'ta muhim va mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi. Bu auditoridan diqqatni va chuqur malakani talab qiladi. Moliyaviy natijalar hisobi auditida yetishmovchiliklar, kamchiliklar, ayniqsa xatolar muhim ahamiyat kasb etadi. Auditor bu kamchilik va xatolarni aniqlab, ularni bartaraf etish yo'llari imkoniyatlarini izlaptopishi va baholashi lozim, chunki qonuchilikka binoan tashkilot vakorxonalar tomonidan auditor tavsiyasi bilan ushbu xatolarni tuzatish — korxona ushbu xatolarni mustaqil tuzatdi degan nuqtai nazardan qaraladi.

**Asosiy faoliyatga tegishli bo'lmagan daromadlar tarkibi va ularni
korxona soliqqa tortiladigan bazasiga kiritish tartibi**

Asosiy faoliyatga tegishli bo'lmagan harajatlar nomlari	Soliqqa tortish uchun hisobga olinadigan summalar
1. Bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari va mahsulot bermagan ishlab chiqarishga harajatlar	Haqiqatda amalga oshirilgan
2. Konservatsiyadagi ishlab chiqarish quvvatlarni saqlash harajatlari.	Haqiqatda amalga oshirilgan
3. Jarima, penya va boshqa xo'jalik shartnomalarini bajarmaganlik uchun boshqa sanksiyalar	Hisoblangan(tan olingan yoki sud qarori asosida)
4. Keltirilgan zararni qoplash bo'yicha harajatlar	Sud qarori asosida hisoblangan
5. Muddati o'tgan va hisobdan chiqarilgan debitorlik qarzlari summasi.	To'langan summalar
6. O'tgan yillar muomalalari bo'yicha zararlar	Hisobot yilida haqiqatda hisoblangan va aniqlangan
7. Salbiy kurs farqlari	Hisoblangan

Korxona tomonidan moliyaviy natijani aniqlashda qo'yilgan xatolar foydaning kamaytirib ko'rsatishga olib kelishi mumkin. Bu esa soliq organlari tomonidan aniqlanganda ma'muriy va soliq qonunchiligida ko'zda tutilgan bir qator jinoiy jazo choralari va sanksiyalarning qo'llanilishiga olib keladi.

Audit jarayonida «Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot (2-shakl) ma'lumotlarining buxgalteriyadagi Bosh kitob, jurnal-orderlar (hisobning jurnal-order siyosati yuritiladigan korxonalarda), boshqa hisob registrlari, hisob (raschyot) lar va birlamchi hujjatlar ma'lumotlari bilan solishtirilib, ma'lumotlarning to'g'ri va mosligi tekshiriladi. Auditning bu qismi ishlab chiqarish harajatlari va tayyor mahsulot tannarxining hisoblanishini, tovarlarga qilingan harajtlar, naqd pulli va naqd pulsiz hisob kitoblar shakllaridagi to'lovlar, mehnatga haq to'lalash va ijtimoiy sug'urta, moliyaviy organlar va byudjetdan tashqari fondlar hamda debitorlar va kreditorlar bilan hisoblashishlar hisoblari nazoratlari natijalarini umumlashtiradi.

Auditor korxonaning moliyaviy hisobotini tekshirayotganda birinchi navbatda hisobot tarkibidagi shakllardagi o'zaro bog'liq summalarning mos kelishini tekshiradilar¹⁰.

¹⁰ Korxonaning 2006-yilgi buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlaridan foydalanildi.

Auditorlar yalpi tarzda harajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom qoidolari va talablariga rioya qilinayotganligini, moliyaviy natijalar shakllanishini tekshirishlari va harajatlarning tannarxga o'tkazilishini, shuningdek, ularning balans foydasi va korxonaning ixtiyorida qoladigan foydadan o'chirilishligining asoslilikini baholashlari lozim. Auditni o'tkazish jarayonida auditorlar yakuniy moliyaviy natijalarning barcha tashkil etuvchi qismlarini nazorat qiladilar.

Auditorlik tekshiruvi shu narsani ishonchli tarzda namoyon etadiki, hisob xodimlarining zaif malakasi tufayli ayrim tashkilotlarda moliyaviy natijani asossiz tarzda shakllantiradilar va buxgalteriya hisobidagi foydadan foydalanishni noto'g'ri aks ettiradilar. Shu bois shu narsani bilish lozimki, moliyaviy natijalar mahsulot (ishlar, xizmatlar), asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, turli moddiy boyliklar va boshqa mulkni sotishdan vujudga keladi.

Qoidaga ko'ra, foyda (daromad) korxonalar tomonidan quyidagi maqsadlar uchun ishlatiladi: foyda (daromad) solig'ini to'lash; boshqaruvning tegishli qaroriga muvofiq ustav kapitaliga qo'shiladigan, o'tgan yilgi foyda hisobidan ustav kapitalini ko'paytirish; dividendlar to'lash.

Qo'shma korxonalar foydasiga keladigan bo'lsak, u byudjetga to'lanadigan summalar va zahiralar yaratish hamda ularni to'ldirishga yunaltirilgan summalar chegirib tashlanganidan so'ng, qo'shma korxona ishtirokchilari o'rtasida, ularning ustav kapitalidagi hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi, agar ta'sis hujjatlarida boshqacha tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa.

Qo'shma korxonaning xorijiy ishtirokchilariga korxona faoliyatidan olingan foydani taqsimlash natijasida tegishli bo'lgan, so'm va chet el valyutalaridagi summalarni, shuningdek, taqsimlangan erkin muomaladagi valyutada olingan daromadning tegishli ulushini ularning mamlakatlariga o'tkazib berish kafolatlanadi.

Auditor korxonaning foydasi (daromadi)ni va moliyaviy holatini tekshirishda quyidagilarni puxta o'rganishi lozim: tayyor mahsulotlar, tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan olingan foydalar yoki ko'rilgan zararlar; davr sarflari, ularning asoslanganligi, tasdiqlangan smetaga muvofiqligi va moliyaviy natijaga ta'siri.

Bunda, jumladan, quyidagilarni tahlil qilish zarur: asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi (bino va inshootlarni buzish va bo'laklash, qo'rilmalarni demontaj qilish va shunga o'xshashlar), asosiy vositalarni boshqa tashkilotlar va korxonalarga sotish yoki berishda paydo bo'lgan zararlar; nomoddiy aktivlarni boshqa korxona va tashkilotlarga sotish yoki berishda paydo bo'lgan zararlar; aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklardan ko'rilgan zararlar; jarimalar, peniyalar va neustoykalar to'lash bilan bog'liq zararlar; asosiy faoliyatdan olinadigan foyda, boshqa daromadlar va boshqa tushumlar hisobidan zahira qilinib, boshqa korxonalar va tashkilotlar (chet elliklarni ham qo'shib), shuningdek ayrim shaxslar bilan hisob-kitoblarga doir shubhali qarzlar summalari; «Boshqa daromadlar va tushumlar» ga quyidagilar kiradi: korxonaning asosiy fondlari va boshqa mulklarini sotishdan olingan daromadlar; da'vo muddati o'tib ketgan, kreditor va deponentga o'tkazilgan qarzlarini hisobdan o'chirishdan olingan daromadlar; undirilgan jarimalar, peniyalar, neustoykalar va xo'jalik shartnomasining boshqa shartlarini buzganligi uchun undiriladigan boshqa turdagi sanksiyalar; korxona ichidagi oshxonalar, yordamchi xo'jaliklar va boshqalardan olinadigan daromadlar va tushumlar; moliyaviy faoliyatga doir daromadlar va sarflar. Bunda moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlarni hisobga oladigan schyolar (9500) guruhi bo'yicha 9510, 9520, 9530, 9540, 9550, 9560 va 9590 schyotlar ochilib, daromadlar tegishli tarzda hisobga olib borilganligi tekshiriladi. Moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan zararlarni tekshirishda auditor moliyaviy faoliyat bo'yicha harajatlarni hisobga oladigan 9610, 9620, 9630 va 9690 schyotlarning ma'lumotlarini ham tekshiradi.

Shuningdek, favqulodda olingan foydalar va ko'rilgan zararlar ham tekshirilishi lozim. Bunda auditor 9710«Favqulodda olingan foyda» va 9720«Favqulodda ko'rilgan zarar» schyotlarining analitik hisobi va dastlabki hujjatlar ma'lumotlarini tekshirishi zarur. «Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga qo'shiladigan, mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) harajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ning sharhlarida ko'rsatilishicha, xorijiy davlatlar amaliyotida favqulodda zararlarga quyidagilar kiradi: tabiiy ofatdan ko'rilgan katta yo'qotishlar; urush va

boshqa siyosiy notinchliklar natijasida ko'rilgan yo'qotishlar; mamlakatda qonunchiligining o'zgarishi natijasida ko'rilgan yo'qotishlar, masalan, xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirish (natsionalizatsiya) haqida qaror qabul qilish, ayrim faoliyat turlarini ta'qiqlash va boshqalar. Bunda auditor quyidagilarni tekshirishi lozim: favqulodda yo'qotishlar meteorologik, seysmik va boshqa tegishli xizmatlarning sodir bo'lgan tabiiy ofatlar to'g'risidagi ma'lumotlari bilan tasdiqlanishi; korxona mulklari favqulodda hodisalardan sug'urta qilinganligi va boshqalar.

Auditor moliyaviy natijalarni tekshirishda quyidagilarni ham aniqlashi lozim: byudjetga soliqlarning o'z vaqtida va to'liq to'lanishi; shubhali qarzar bo'yicha zahiralar yaratilishining to'g'riligi; foydaning korxona ishtirokchilari o'rtasida o'z vaqtida va to'g'ri taqsimlanishi; aktsiyadorlarga dividendlar to'lashning to'g'riligi.

Agar hisobot yilining oxiriga kelib debitor qarzlarning inventarizatsiya materiallarini tahlil qilish natijasida shubhali debitor qarzar aniqlansa, unda korxona shu miqdorda shubhali qarzar bo'yicha zahira yaratishi mumkin. Bunda qarzdorning moliyaviy holati, to'lov kobiliyati va qarzni to'liq yoki qisman summada qoplay olish ehtimoliga qarab zahira hajmi har bir shubhali qarzar bo'yicha alohida aniqlanadi. Yaratilayotgan zahiralar summasi 9430«Boshqa operatsion harajatlar» schyoti(joriy yilning yakuniy hisob-kitobi bo'yicha) yoki 8710-«Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi» schyoti (oldingi yildagi foyda hisobidan) debeti va 4910 «Shubhali qarzar bo'yicha zahiralar» schyoti kreditida aks ettiriladi.

Ushbu masalani ko'rib chiqishda auditor quyidagilarni tekshirishi lozim: shubhali qarzar bo'yicha zahira yaratish uchun zarur hujjatlarning mavjudligi (korxona debitor qarzlarning inventarizatsiya ro'yhati, solishtirish dalolatnomalari, to'lovga layoqatsizlik haqida ma'lumotnoma va b); shubhali deb tan olingan qarzlarni hisobdan o'chirishning to'g'riligi; ishlatilmagan shubhali qarzar bo'yicha zahira summalarining tegishli yil foydasiga qo'shilishi.

Ayrim tarmoqlarning korxonalari O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ruxsati bilan ta'mirlash ishlari o'tkazish uchun mablag'lar zahirasi yaratadilar. Agar ta'mirlanadigan asosiy vositalar ishlab chiqarish uchun tayinlangan va shu jarayonda

ishlatiladigan bo'lsa, bu zahiraga qilinadigan ajratmalar mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) harajatlari tarkibiga «boshqa harajatlar» elementi bo'yicha qo'shiladi. Zahira hajmi ta'mirlash ishlari uchun kutilayotgan harajatlar qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Auditor ta'mirlash ishlari uchun zahiralarning to'g'ri tashkil etilishi va ishlatilishini tekshirishi zarur. Bunda quyidagilar tekshiriladi: Zahira yaratish uchun Moliya Vazirligining ruxsati borligi; ta'mirlash o'tkazish uchun smeta va titul ro'yhati; zahiralardan foydalanishni hisobda aks ettirishning to'g'riligi; to'laligi va o'z vaqtidaligi; foydalanilmagan zahira qoldig'i qolganda «storono» qilish yo'li bilan zahiralarni yopish; debet 2010, 2310, 2510 kredit 8910 «Kelgusi davr harajatlari va to'lovlar zahirasi» («Asosiy vositlarni ta'mirlashga doir kelgusidagi harajatlar zahirasi» analitik schyoti).

Davr sarflariga kiritiladigan harajatlar tarkibi «Mahsulotlar (ish, xizmatlar) tannarxiga qo'shiladigan, mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) harajatlarning tarkibi va moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq aniqlanadi.

Auditor davr sarflarini hisobga olishni va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishning to'g'riligini nazorat qilish maqsadida quyidagilarni tekshirishi lozim: davr sarflarini hisobga oladigan: 9410-«Sotish harajatlari», 9420 - «Ma'muriy harajatlar», 9430-«Boshqa operatsion harajatlar», 9440-«Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chegiriladigan hisobot davri harajatlari» bo'yicha o'z vaqtida, ishonarli va to'liq aks ettirilishining ta'minlanishi; ma'muriy-boshqaruv xodimlari mehnatiga haq to'lash va mukofotlash haqidagi Nizom, lavozim maoshlarining belgilangan harajatlar smetasiga rioya qilinishi ustidan nazoratning ta'minlanishi.

Quyidagi harajatlarni davr sarflariga kiritishning asoslanganligi va o'z vaqtidaligi: reklama harajatlari (nashriyotda e'lon qilish, radiodan eshittirish va televidenie orqali ko'rsatish, reklama mahsulotlarini ishlab chiqish va chop etish, stendlar va shitlar tayyorlash, video va diafilmlar namoyish etish va boshqalar); korxonaning O'zbekiston Respublikasi hududida va xorijdagi yarmarkalar va ko'rgazmalarda ishtirok etishiga doir harajatlar (eksponatlarni tayyorlash va etkazib

berish, modellar va maketlar tayyorlash, adabiyotlar va texnik hujjatlarni nashr qilish); mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni eksport qilish bilan bog'liq sarflar; bojxona tadbirlari uchun to'lovlar; import muomalalarini amalga oshirishda vositachilik qiladigan tashkilotlarga to'lanadigan komission to'lovlar summolari; bojxona to'lovlari, shuningdek, tovarlar va boshqa mulklarni import qilish bilan bog'liq bo'lgan bojxonada amalga oshiriladigan rasmiylashtirish o'tkazish uchun to'lovlar; material qiymatliklarni sotib olish va tashib keltirish harajatlari; belgilangan me'yorlar va boshqaruv tomonidan tasdiqlangan smetalar doirasidagi korxona faoliyati bilan bog'liq vakillik harajatlari (shtatda turmaydigan tarjimonlar xizmatiga haq to'lash, ishchi muzokaralar vaqtida chet ellik vakillarning rasmiy qabulini o'tkazishga doir harajatlar).

Bunda qilingan harajatlarning asoslanganligi va tasdiqlovchi hujjatlar (schyotlar, do'konlar va restoranlarning cheklari va boshqalar)ning mavjudligiga alohida e'tibor berish zarur.

Moliyaviy faoliyatga doir harajatlar va daromadlar «Harajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomda»da belgilangan. Ushbu Nizomga muvofiq moliyaviy faoliyat bo'yicha harajatlarga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan belgilangan hisob stavkalari darajasida va ulardan ortiqcha olingan qisqa muddatli hamda uzoq muddatli kreditlar bo'yicha, shu jumladan to'lov muddati o'tgan va uzaytirilgan ssudalar bo'yicha to'lovlar;

- mulkni uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) bo'yicha foizlarni to'lash harajatlari;

- chet el valyutasi bilan muomalalarga doir salbiy kurs tafovutlari bo'yicha zararlar;

- sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, sho''ba korxonalarga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar;

- o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog'liq harajatlar;

- moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa harajatlar, shu jumladan salbiy diskont.

Auditor ushbu harajatlarni tekshirishda 9610, 9620, 9630 va 9690-schyotlar bo'yicha hisob yozuvlarini tekshiruvdan o'tkazib, ularning «Nizom»ga muvofiqligi va schyotlarda to'g'ri aks ettirilganligiga ishonch hosil qilishi lozim.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarga quyidagilar kiradi:

- olingan royaltlar va kapital transferti;
- O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida ulush qo'shgan holda qatnashishdan olingan daromad, aktsiyalar bo'yicha dividendlar va obligatsiyalar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektga tegishli qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar;
- mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to'lovini olish);
- valyuta schyotlari, shuningdek chet el valyutalaridagi muomalalar bo'yicha ijobiy kurs tafovutlari;
- sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, sho'ba korxonalarga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan olingan daromadlar;
- moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

Yuqorida keltirilgan daromadlarni tekshirish uchun auditor 9510, 9520, 9530, 9540, 9550, 9560 va 9590-schyotlarning ma'lumotlarini o'rganib, ularning qonuniyligini va schyotlarda to'g'ri aks ettirilganligini aniqlaydi.

Favqulodda zararlar – bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki muomalalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari harajatlardir. Bunga favqulodda va davr harajatlari tarkibida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davr harajatlari kirmaydi.

U yoki bu moddaning favqulodda zararlar sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- korxonaning odatdagi xo'jalik faoliyatiga xos emaslik;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq emaslik.

Tegishli moddalarni favqulodda zararlar qatoriga kiritish yoki kiritmaslik to'g'risida qarorlar qabul qilishda ishlar amalga oshiriladigan sharoitlarni ham hisobga olish lozim. Masalan, agar xo'jalik yurituvchi sub'ekt alohida iqlim sharoitlarida joylashgan bo'lsa, u holda iqlim sharoitlariga bog'liq holdagi ishlamay turib qolishlar favqulodda deb baholanishi mumkin emas, chunki ushbu modda «bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak» mezoniga javob bermaydi.

Favqulodda foyda moddalari – bu ko'zda tutilmagan, tasodifiy tusga ega bo'lgan hodisa yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektning odatdagi faoliyat doirasidan chetga chiqadigan tusdagi muomalalar natijasida paydo bo'ladigan va olinishi kutilmagan foydadir. Bunga daromadlarning favqulodda moddalari yoki asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar bo'limida aks ettirilishi kerak bo'lgan, o'tgan davrlardagi foyda kirmaydi.

Favqulodda olingan foyda (ko'rilgan) zararlar to'g'risidagi axborotlarning to'g'ri shakllanganligiga ishonch hosil qilish uchun auditor tomonidan 9710 – «Favqulodda olingan foyda» va 9720-«Favqulodda ko'rilgan zarar» schyotlar ma'lumotlari o'rganiladi.

Shuningdek, auditor «Nizom»ning 1-ilovasiga muvofiq soliqqa tortiladigan bazaga qo'shilishi lozim bo'lgan, moliyaviy faoliyatga doir sarflarni ham tekshirishi zarur. Bunday sarflarga:

- qisqa muddatli bank kreditlari, shu jumladan to'lov muddati o'tgan va uzaytirilgan ssudalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan belgilangan hisob stavkalari oshgan to'lovlar;
- uzoq muddatli bank kreditlari bo'yicha to'lovlar;
- qimmatli qog'ozlarni chiqarish bilan bog'liq sarflar;
- qimmatli qog'ozlar muddatidan oldin to'lash munosabati bilan vujudga kelgan salbiy diskont, agar bu byudjetga qarzlarni to'lash bilan bog'liq bo'lmasa.

Auditor moliyaviy faoliyatga doir harajatlar va daromadlar hamda favqulodda olingan foyda (ko'rilgan zarar)larni tekshirishning barcha jihatlarini o'zining ishchi hujjatlarida qayd qilib boradi.

3.2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot auditi va uni xalqaro hamda milliy standartlar asosida takomillashtirish

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari va uning keyingi bosqichlarida ustuvor yo'nalishlarning belgilanishi, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy hayotni, jumladan, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, mulkdorlar sinfini tashkil qilishdan kelib chiqqan holda bir qancha sohalarni, jumladan audit tizimini ham isloh qilishni taqozo etmoqda. Hozirgi paytda auditorlik faoliyatini takomillashtirishning eng asosiy yo'nalishi – bu auditorlik tekshiruvini amalga oshirish bosqichlari va unda qo'llaniladigan auditorlik amallarini takomillashtirish masalasidir.

Bizningcha, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda auditorlik tekshiruvini samarali amalga oshirish uchun, eng avvalo, tekshiruv jarayonining dastlabki bosqichlarini belgilab olish lozim. Fikrimizcha, mazkur bosqich audit o'tkazishni rejalashtirish bosqichi deb nomlanib, bu bosqichda audit o'tkazishning umumiy rejasi va dasturi tayyorlanishi lozim. Fikrimizcha, korxonalarda o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvini rejalashtirish chog'ida auditorlik tashkiloti tomonidan qo'llaniladigan me'yorlar №3 «Auditni rejalashtirish» nomli auditorlik faoliyatining milliy standarti bilan belgilanmog'i va unda belgilangan tartib asosida rejalashtirilishi lozim.

«Auditni rejalashtirish» nomli №3 standartga muvofiq rejalashtirish auditorlik tekshiruvini o'tkazishning boshlang'ich bosqichi bo'lib, auditorlar reja tuzilgunga qadar bevosita tekshiruv jarayonini boshlamasliklari lozim va auditorlik tekshiruvi ishlarini rejalashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim:

- a) auditni dastlabki rejalashtirish;
- b) auditning umumiy rejasini tayyorlash va tuzish;
- c) audit dasturini tayyorlash va tuzish.

Auditni dastlabki rejalashtirish bosqichi bu xo'jalik yurituvchi sub'ekt va auditorlik korxona tomonidan auditorlik shartnomasini tuzgungacha bo'lgan ishlarni o'z ichiga olib, bu bosqichda auditorlik korxonai tomonidan mijoz-korxona faoliyati bilan tanishish, korxona ichki va tashqi faoliyati xususiyatlari xususida ma'lumot to'plash va mijoz-korxonani auditorlik tekshiruidan o'tkaza olish qobiliyatini

baholash hamda auditorlik shartnomasi shartlarini mijoz-korxona bilan kelishib olish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

12-jadval

**Auditorlik tekshiruvini o'tkazishning
namunaviy umumiy rejasi¹¹**

Tekshiriladigan korxona
Audit davri kishi-soatlar
Audit guruhining rahbari
Audit guruhining tarkibi

«O'zbekko'mir» AJ
2011 yil 14-20 mart kunlari (5 kun)
Karimov M.
7 kishi

№	Rejalashtirilgan ishlar turlari	O'tkazish davri	Bajaruvchi	Izohlar
1	Xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyati bilan tanishish	14.03.2011	Karimov M.	
2	Audit dasturini tayyorlash	14.03.2011	Karimov M.	
3	Korxona ichki nazorat tizimi ma'lumotlarining ishonchliligini baholash	15.03.2011	Karimov M., Aliev S, Ma'murov B.	
4	Audit ob'ektlarini tanlash va tanlash hajmini belgilab olish	15.03.2011	Karimov M.	
5	Audit dalillarini to'plash	16.03.2011	Karimov M., Aliev S, Ma'murov B, Axmedov K.	
6	Korxona mulki va mablag'larining haqiqatda mavjudligi va saqlash holatini tekshirish.	16.03.2011	Karimov M., Aliev S, Ma'murov B, Axmedov K.	
8	Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda amalga oshirilgan muomalalarni buxgalteriya schyotlarida to'g'ri, to'liq va o'z muddatida hisobga olinganligini tekshirish	17.03.2011	Ashurov A, Vasiev A.	
9	Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda amalga oshirilgan muomalalarni tegishli hujjatlarda belgilangan shakl va tartiblarga muvofiq to'g'ri, to'liq va o'z muddatida rasmiylashtirilganligini tekshirish	17.03.2011	Karimov M., Berdiev V.	
10	Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda amalga oshirilgan muomalalar bo'yicha hisob ma'lumotlarini moliyaviy hisobotlarda to'g'ri va haqqoniy umumlashtirilganligini yoki ularning ishonchliligini tekshirish	18.03.2011	Karimov M., Aliev S, Ma'murov B, Axmedov K, Berdiev V.	
9	Auditorlik tekshiruvi jarayonida aniqlangan xato yoki qoidabuzarliklarni paydo bo'lish sabablarini tahlil qilish va ularni kelgusida takrorlanmasligi yuzasidan tegishli amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.	19.03.2011	Karimov M., Aliev S, Ma'murov B.	
11	Tekshiruv jarayonida aniqlangan xato yoki qoidabuzarliklarni jiddiyligini yoki korxona moliyaviy natijasiga ta'sirini baholash	19.03.2011	Karimov M., Aliev S, Ma'murov B, Axmedov K.	
12	Bajarilgan ishlar natijalarini tahlil qilish, barcha oraliq va umumiy auditorlik dalolatnoma yoki ma'lumotnomalarini tayyorlash	20.03.2011	Ismoilov M, Karimov M., Aliev S, Ma'murov B.	
13	Tekshiruv natijalarini mijoz-korxona rahbariyatiga taqdim etish va h.k.	20.03.2011	Ismoilov M., Karimov M.	

Auditorlik tashkiloti nomidan
audit hujjatlarini imzolash huquqiga ega rahbar

Ismoilov M.

Audit guruhining rahbari

Karimov M.

¹¹ Jadval muallif tomonidan tuzildi.

Auditning umumiy rejasida tekshiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektning ichki nazorat tizimini baholash, tanlash hajmini aniqlash, audit dasturini tayyorlash, auditni bevosita o'tkazish jarayoni (dasto'rni bajarish) amallarini belgilash, bajarilgan ishlar natijalarini tahlil qilish, barcha oraliq va umumiy audit ish hujjatlarini tayyorlash, tekshiruv natijalarini xo'jalik yurituvchi sub'ekt va yuqori organlarga taqdim etish va boshqalarni o'z ichiga olgan holda audit o'tkazishning barcha bosqichlari aks ettiriladi. Yuqoridagi 12-jadvalda «O'zbekko'mir» OAJda auditorlik tekshiruvini o'tkazishning umumiy rejasi shartli misol sifatida keltirildi.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonida 3-son AFMSga muvofiq tekshiruvning umumiy rejasi tuzilganidan so'ng audit dasturi tuzilib, unda barcha audit amallarining batafsil ro'yhati bayon qilinishi zarur. Dastur auditorlar uchun batafsil yo'riqnoma bo'lib, unda tekshirilishi lozim bo'lgan buxgalteriya hisobining barcha bo'limlarini tekshirish, shuningdek ichki nazorat tizimini tahlil qilish bo'yicha ularning barcha hatti-harakatlari, tekshiruvda qo'llaniladigan auditorlik metodlari va amallari aks ettirilgan bo'lishi lozim.

Fikrimizcha, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish bosqichlarini to'g'ri belgilash, uning o'tkazish sifati va samaradorligini oshirishning kafolatidir. Shu boisdan, tekshiruvni o'tkazish bosqichlarini yanada aniqroq va batafsilroq ifodalash dolzarb ahamiyatga egadir. Fikrimizcha, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda amalga oshiriladigan auditorlik tekshiruvini ishlarini quyidagi uch bosqichga ajratish lozim:

- Tayyorgarlik bosqichi;
- Tekshirish bosqichi;
- Tekshiruv natijalarini umumlashtirish va baholash bosqichi.

Quyidagi 13-jadvalda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda auditorlik tekshiruvini o'tkazish bosqichlari va unda bajariladigan ishlar keltirib o'tilgan.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda auditorlik tekshiruvini amalga oshirish tartibi¹²

Tekshiruv o'tkazish bosqichlari	Bajariladigan ishlar
Tayyorgarlik bosqichi	- tekshiruv maqsadi va vazifasini aniqlash; - tekshiruv ob'ektlarini tanlash; - auditorlik ishchi guruhini tasdiqlash, ya'ni bevosita tekshiruvni o'tkazishda qatnashuvchi shaxslarni tayinlash; - tekshiruvning reja va dasturini tayyorlash va tasdiqlash (tekshiruv bo'yicha auditorlik ishchi rejasi va dasturini ishlab chiqish).
Tekshirish bosqichi	- auditorlik riski va muhimlik darajasini aniqlash; - korxona ichki nazorat tizimi ma'lumotlarining ishonchliligini baholash; - audit ob'ektlarini tanlash va tanlash hajmini belgilab olish; - auditorlik ishchi guruhini tasdiqlash, ya'ni bevosita tekshiruvni o'tkazishda qatnashuvchi shaxslarni tayinlash; - audit dalillarini to'plash; - xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda amalga oshirilgan muomalalarni buxgalteriya schyotlarida to'g'ri, to'liq va o'z muddatida hisobga olinganligini tekshirish; - xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda amalga oshirilgan muomalalarni tegishli hujjatlarda belgilangan shakl va tartiblarga muvofiq to'g'ri, to'liq va o'z muddatida rasmiylashtirilganligini tekshirish; - amalga oshirilgan muomalalarning qonuniyligi, hujjatlarning haqiqiylikini, undagi mavjud hisob-kitoblarning arifmetik va grammatik jihatdan to'g'riligi, hujjatlarning belgilangan shakllarga mos kelishini aniqlash; - muomalalarni haqiqatda amalga oshirilganligi, hujjatlarda ko'rsatilgan pul mablag'lari va moddiy qimmatliklar olinganligi yoki berilganligini, haqiqatan ish bajarilganligi yoki xizmat ko'rsatilganligini tekshirish; - har bir amalga oshirilgan muomala bo'yicha yozuvlar, hujjatlar va haqiqiy ma'lumotlarni boshqasini bilan solishtirish, masalan, hisobotlarning haqiqiy ko'rsatkichlarini pul mablag'lari va moddiy boyliklar haqidagi ma'lumotlar bilan solishtirish; - xo'jalik yurituvchi sub'ektda mablag'lar va moddiy boyliklarni saqlash va sarflashning to'g'riligi, buxgalteriya hisobi va hisobotlari ishonchliligi, moliyaviy intizomga rioya qilinishini tekshirish; - xo'jalik yurituvchi sub'ekt biznes reja yoki smetasining to'g'ri tuzilganligi hamda ularni rasmiylashtirish tartib-qoidalariga amal qilinganligini tekshirish; - xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan sarflangan harajatlarning to'g'riligi va o'z vaqtidaligi, harajatlarning korxona maqsadlariga mos kelishini, setlar, shtatlar, kontingentlar bo'yicha va ishlab chiqarish rejalarini bajarish darajasini tekshirish va tahlil qilish; - xo'jalik yurituvchi sub'ektsi ichki nazorat tizimi faoliyatini baholash, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hisobotlari tahlilini o'tkazish, rejalashtirilgan iqtisodiy va nazorat ishlari rejasining bajarilishining amaldagi holatini o'rganish va yuqori boshqaruv organlari tomonidan berilgan topshiriqlarning bajarilish sifatini tekshirish; - Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda amalga oshirilgan muomalalar bo'yicha hisob ma'lumotlarini moliyaviy hisobotlarda to'g'ri va haqqoniy umumlashtirilganligini yoki ko'rsatkichlarning ishonchliligini tekshirish.
Tekshiruv natijalarini umumlash tirish va baholash	- ishchi hujjatlarni sharhlash va yakuniy ishchi hujjatlarni tayyorlash; - aniqlangan kamchiliklarning jiddiylik darajasini baholash; - auditorlik dalillarning etarliciligini baholash; - faoliyat ko'rsatayotgan korxona printsiplari bilan bog'liq omillarni baholash; - buxgalteriya hisobotidagi axborotlarni taqdim qilish va bayon qilish; - hisobot tuzilganidan so'ng sodir bo'lgan hodisalarni baholash; - tekshiruv natijasida aniqlangan xato yoki qoidabuzarliklarni AFMSlarda belgilangan mazmun va tartiblar asosida audit ish hujjatlarida umumlashtirish va

¹² Жадвал муаллиф томонидан тузилди.

	rasmiylashtirish; - tekshiruv natijasida aniqlangan xato yoki qoidabuzarliklarning mazmuni, paydo bo'lish sababalari va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni yuzasidan amaliy tavsiyalar aks ettirilgan auditorlik(oraliq) dalolatnomalarini tuzish va moddiy-javobgar shaxsdan tegishli aniqlangan holat bo'yicha zarur tushuntirish olish; - xo'jalik yurituvchi sub'ekt tekshiruv natijalari bo'yicha aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq, amaliy, kafolatli taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish, tegishli chora va tadbirlarni amalga oshirish, tekshiruv natijalarini umumlashtirish va baholash; - tekshiruvda aniqlangan qonunbuzarliklar va suiste'molchiliklarni bartaraf etish hamda xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliya-xo'jalik faoliyatini yaxshilash bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariga taqdimnoma loyihasini tayyorlash va taqdim etish; - o'tkazilgan audit natijalari bo'yicha auditorlik hisobotini tayyorlash; - auditorlik tekshiruv natijalari asosida tuzilgan auditorlik hisoboti ma'lumotlariga muvofiq auditorlik xulosasini tayyorlash va uni foydalanuvchilarga taqdim etish.
--	--

Bizningcha, yuqorida keltirilgan tartib va shakllarga asosan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda auditorlik tekshiruv ishlari tashkil etilib, tekshiruvlar belgilangan ketma-ketlikda amalga oshirilsa, tekshiruv jarayonida auditorlar tomonidan yo'l qo'yiladigan xato va kamchiliklar kamayadi, bu esa tekshiruvlarning sifati hamda samarasi oshishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bozor qonunlari asosida faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida shakllangan va erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatish uchun esa har bir korxona moliyaviy barqaror va mustahkam bo'lishi lozim. Raqobatbardoshlikni ta'minlash ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda korxona faoliyatining moliyaviy natijalarini to'g'ri shakllantirish, korxonada inqirozga qarshi dasto'rni ishlab chiqish va barqaror rivojlantirish strategiyasini belgilashga ko'p jihatdan bog'liq. SHu nuqtai nazardan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy natijalarini shakllantirish, ularni auditorlik tekshiruvlaridan o'tkazish uslubiyatini takomillashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda sof foydani aniqlash va taqsimlash auditorlik hamda audit tekshiruvlari jarayonida dalillar to'plash va natijalarini umumlashtirishning uslubiy masalalari e'tibordan chetda qolmoqda. Moliyaviy natijalarga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili an'anaviy usullarni qo'llash bilan chegaralanib qolgan va ko'p omilli tahlil, shu jumladan, omillar qiymatini

zanjirli ketma-ket qo'yish usuli bilan foyda va rentabellikni chuqurlashtirilgan tahlil qilish hamda uni auditda qo'llash imkoniyatlari ochib berilmagan.

Moliyaviy natijalar auditida ma'lum xususiyatlarga ega bo'lib, ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

- moliyaviy natijalarning shakllanishi bir qancha ko'rsatkichlarga bog'liq;
- moliyaviy natija hisobot davridagi korxona faoliyatining yakuni hisoblanadi;
- korxonaning foyda bilan ishlashi yoki hisobot davrini zarar bilan yakunlanishi moliyaviy natijalarni shakllantiruvchi ko'rsatkichlarga bevosita bog'liq bo'ladi;
- moliyaviy natijalarga oldindan aniq bo'lmagan xavf-xatarlar, tasodifiy hodisalar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy natijalar auditida dalillar to'plash quyidagi vazifalar belgilab olinishi kerak:

- moliyaviy natijalar auditining me'yoriy va tashkiliy-uslubiy masalalarini kompleks tadqiq qilish;
- asosiy faoliyat moliyaviy natijalari auditini tashkil etish va o'tkazishni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- davr harajatlari auditini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- moliyaviy faoliyat daromadlari va harajatlarini auditorlik tekshiruvdan o'tkazish uslublarini rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- foydani soliqqa tortish auditining tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;
- moliyaviy natijalar auditida moliyaviy tahlilning o'rnini asoslash;
- foyda va rentabellikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar tizimini rivojlantirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqish.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalarning tekshiruv jarayonida keng qo'llanilishi, fikrimizcha, moliyaviy natijalar auditini sifatli o'tkazilishiga va holis auditorlik xulosasining shakllanishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish xilma-xil munosabatlarga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy islohatlarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Ko'plab iqtisodiy sub'ektlar shakllanmoqda. Bunday yangi tuzilmalarda etarli darajada

professional malaka, tajriba, bilim va korxonalar faoliyatini tartibga solib turuvchi yangi qonun-qoidalarini puxta biladigan buxgalterlar etishmasligi oqibatida huquq-tartibot organlarining aralashuv hollari uchraydi. Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi va islohotlarning chuqurlashtirilishi natijasida korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish, auditorlik tekshiruvdan o'tkazish, hamda hisob-kitobni yaxshilash maqsadida ularga maslahat, yo'l-yo'riq, huquqiy va boshqa turlardagi yordam ko'rsatadigan malakali xizmatning yangi shakl-auditorlik faoliyatiga ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Zero Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Tadbirkorlar manfaatini himoya qilishda auditorlik faoliyatining mavqeini yanada oshirish kerak". Bunday faoliyatning vazifasi, birinchi navbatda, korxona moliya-xo'jaligi faoliyatini nazorat qilib turadigan buxgalterlik hisobi tizimi, faoliyat natijalarini baholaydigan joriy va yillik hisobotlarning qonuniyligini tasdiqlashdan iboratdir. Ushbu auditorlik faoliyatida audit o'tkazishning asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lib auditorlik dalillari hisoblanadi.

Kezi kelganda shuni ham ta'kidlash joizki, asr axborot texnologiyalari asri ekanligini bois auditorlik faoliyatida auditorlik dalillar va ularni olish usullarini takomillashtirishni axborot texnologiyalarining o'rinisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Hozirigi kunda turli hil faoliyatlarda, shu jumladan, hisob ma'lumotlari ustidan ishlash va audit o'tkazishdan ham kopyuterlardan keng ko'lamda foydalanilmoqda. Buning uchun 11-sonli "Ma'lumotlar ustida kompyuter yordamida ishlash (MKI) sharoitida audit" O'zbekiston Respublikasi AFMS ishlab chiqarilgan. Ushbu andozaning maqsadi, tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektda ma'lumotlar ustidan kompyuter yordamida ishlanadigan tizim mavjud bo'lgan holda, auditorlik tekshiruvi o'tkazayotgan auditorlik tashkilotining harakatlarini belgilashdan iboratdir. Andozaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- MKI tartibi sharoitlarida auditni amalga oshirayotgan auditorlik tashkilotlariga nisbatan asosiy talablarni ifodalash;

- tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan MKI tartibini qo'llash natijalarini baholash uchun auditorlik tashkiloti taklif etadigan mutaxassislariga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilash;

- MKI sharoitlarida auditorlik tavakkalliligini aniqlash;
- MKI sharoitlarida boshqaruv vositalarini aniqlash.

Iqtisodiy ma'lumotlarning avtomatizatsiyalashtirilgan tartibini qo'llaydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektdan bajarilgan ishni rejalashtirish, tahlil qilish, nazorat qilish va natijada ushbu ish yuzasidan umumlashtirilgan qisqacha ma'lumot va xulosalar tayyorlash uchun auditor MKI tartiblari to'g'risida etarli darajada bilimlarga ega bo'lish lozim. Bundan auditor quyidagilarga javob berishi maqsadga muvofiqdir.

- MKI muhiti ta'sir ko'rsatuvchi hisob va ichki nazorat tizimini barcha ahamiyatli jabhalarini etarli darjada tushunib olishi;
- MKI muhiti tavakkalchiligini baholashga ta'siridan kelib chiqib samarani aniqlash;
- loyhani tayyorlashi va boshqaruv testlari va mustaqil muolajalarni bajarishi.

Kompyuter tizimi markazlashtirilmagan holda, kompyuter uskunalari geografik jihatdan tarqoq bo'lganda, buxgalteriya xodimlari ma'lumotlariga oid texnologiya javhalari bo'yicha bilimlari yetarli bo'lmaganda, MKI tartibi ishlatilishi yuzasidan ichki ichki nazorat bo'lmaganda, MKI tartibiga ruxsatsiz kirishni chegaralovchi tadbirlar mavjud bo'lmagan holda, auditorlik tavakkalchiligi oshib boradi. Avtomatizatsiyalash tizimlari litsenziyalanganda, dasturiy ta'minot yuzasidan maxsus nazorat o'rnatilganda, korxonaning barcha quyi bo'limlari MKIning yagona muhitida ishlaganda, xo'jalik yurituvchi sub'ektning ma'lumotlariga oid siyosati MKI tartibidan asosiy foydalanuvchilari bilan kelishilganda, MKI tartibi rivojlanishning uzoq muddatli rejasi mavjud bo'lganda auditorning tavakkalchiligi kamayadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xususiy sektorga bo'lgan e'tibor tobora oshib bormoqda. Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi puxta o'ylangan reja va dasturlarning natijasidir. Yangi biznes ochish, biznes yuritish bugungi kunda ancha engillashdi, juda ko'p imtiyozlar, engilliklar, davlat tomonidan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlar olib borilmoqda.

Xususiy biznes rivojlanishi auditorlik faoliyatiga bo'lgan talabni oshiradi. Xususiy biznesning rivojlanishi, unga berilayotgan erkinliklar, tadbirkorlarning milliy

bozordan xalqaro bozorga chiqishlariga imkon yaratib kelmoqda. Bu esa eksport va import hajmining oshishiga, ya'ni mahalliy tadbirkorlarning xalqaro bozordagi tadbirkorlar bilan bo'lgan aloqalarini kuchaytiradi. Ma'lumki, buxgalteriya hisobi hamda auditorlik faoliyati milliy standartlari, xalqaro standartlardan farq qiladi va shu sababli bugungi kunda xalqaro standartlar asosida audit o'tkaza oladigan hamda milliy hisobotlarni xalqaro andozalarga transformatsiya qila oladigan auditorlik korxonalarigina raqobatbardoshdir.

Hozirgi kunda ko'pgina tadbirkorlar xalkaro bozorda ham o'z o'rinlariga ega va ularga beriladigan auditorlik hisoboti va xulosasi jahon talablariga javob bermaydi. Ayni damda yurtboshimizning PQ-1438-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida anjumanlar bo'lib o'tdi va ularda asosiy urg'u, buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatining milliy standartlarini, xalqaro standartlar asosida yanada rivojlantirish va takomillashtirish, shuningdek auditning xalqaro standartlarini joriy etish Kontseptsiyasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Ushbu chora-tadbirlar 2013-2015-yillar mobaynida amalga oshirilishi belgilangan.

Shunday qilib, xususiy sektorning, tadbirkorlikning rivojlanishi auditorlik faoliyatini yangi pog'onaga ko'tarilishiga olib kelmoqda. Yurtboshimiz tadbirkorlik faoliyatiga juda ko'p yo'l ochishlari va keyinchalik auditorlik faoliyatiga keng nazar tashlashlari, puxta o'ylangan rejadir. Chunki tadbirkorlik faoliyati, xususiy sektor rivojlanmasa auditorlik faoliyati rivojlana olmaydi. Bu barchamizga ma'lum bo'lgan talab va taklif qoidasidir. Auditorlik faoliyatini xalqaro standartlar asosida yuritish, milliy auditorlik tashkilotlari orasida saralanishga olib keladi, buning natijasida milliy bozorda faqat yirik tashkilotlar qoladi. Bu esa, bizning fikrimizcha, ijobiy holat, mamlakatda 100 ta kichik hech kimga tanilmagan va ularning xulosalari kafolat vazifasini bajara olmaydigan auditorlik tashkilotlari mavjud bo'lgandan ko'ra, 20 ta yirik auditorlik tashkilotlari mavjudligi ma'qul, chunki tadbirkorlar, ishonchliroq va kafolat bera oladigan auditorlik tashkilotlariga murojaat qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Auditorlik faoliyatini xalqaro standartlar asosida yuritar ekanmiz, hozirdan auditorlik hisobotining yozilish tartibini, undagi ko'pgina ma'lumotlar auditorlik

tashkilotining ichki hujjatlarida aks etirilishini qaytadan ko'rib chiqishimiz kerak. Chunki hozirgi auditorlik hisobotlarida juda ko'p ma'lumotlar ta'kidlovchi ma'lumotlardir. Boshqacha aytganda ko'p ma'lumotlar auditorlik tashkilotlari uchun qiziq, ammo tekshirilayotgan korxona uchun u ma'lumotning keragi yo'q. SHuning uchun auditorlik tashkilotlarida hujjatlashtirishni to'g'ri yo'lga qo'yishimiz va maxsus namunaviy shakllar kiritishimiz auditorlik tekshiruvlarini sifatini oshiradi.

Xulosa

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning xilma-xil shakllarining vujudga kelishi hamda xo'jalik yuritishning zamonaviy usullarining joriy etilishi barcha korxonalarda buxgalteriya hisobi borasida talaygina muammolarni vujudga keltirdi. Bugungi kunning talabi nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, asosiy e'tibor xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobi borasidagi muammolarni bartaraf etish hamda bu boradagi ishlarni takomillashtirishga qaratilmoqda.

Buxgalteriya hisobining barcha ob'ektlarida bo'lgani kabi moliyaviy natijalarning shakllanishi va taqsimlanishi hisobi borasida ham hisob ishlarini zamonaviy talablar asosida qurishga bo'layotgan intilish, shak-shubhasiz, bu boradagi muammolarni barataraf etishga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishida moliyaviy natijalar hisobining hozirgi holati, bu boradagi kamchiliklar, ularni bartaraf etishning imkoniyatlari ko'rsatib o'tildi. Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, moliyaviy natijalar hisobi borasidagi muammolar va ularni barataraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Respublikamizda makroiqtisodiy barqarorlik hamda aholining ish bilan bandligi ta'minlash, bozorni keng xalq iste'moli mollari bilan to'ldirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni inobatga olgan holda bugungi kunda asosiy e'tibor kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari faoliyatini kengaytirishga qaratilmoqda. Ammo kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari faoliyatini yangi bosqichiga olib chiqishda tadbirkorlar, investorlar oldida talaygina muammolar mavjud.

Eng katta muammo shundaki, iqtisodiyotning bu bo'limidagi korxonalarga soliq imtiyozlar berilgan bo'lsada, ammo ularga davlat maqsadli fondlariga to'lanadigan majburiy to'lovlar yuki og'irlik qilmoqda. Bizning fikrimizcha, kichik biznes sub'ektlari davlat maqsadli fondlariga to'lanadigan to'lovlari kamida 30%ga pasaytirilishi kerak. Ana shundagina ularda mablag'larni reinvestitsiya qilish imkoniyati kuchayib, faoliyat samaradorligi oshadi.

2. Ko'pchilik korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritishda qabul qilingan buxgalteriya hisobi milliy andozalariga rioya qilinmaydi. Bu esa o'z navbatida hisobni yuritishda ayrim tushunmovchiliklar va bahslarni yuzaga keltirib chiqadi. Shu sababli korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritishda mazkur andozalarga rioya qilinishi borasida kerakli chora tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu borada qanday ishlar qilish zarur? Ma'lumki, buxgalteriya hisobi milliy andozalari bo'yicha qo'llanmalar, adabiyotlar va ularga bo'lgan sharhlar juda ham kam miqdorda chop etilayapti. Shu sababli shu yo'nalishda muhim ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Jumladan, matbuot nashrlarida buxgalteriya hisobi milliy andozalari bo'yicha batafsil sharxlar va tushuntirishlar muntazam chop etib borilishi, shu masalaga bag'ishlangan yig'ilishlar, ilmiy amaliy konferentsiyalar tez-tez o'tkazilib turilishi lozim.

3. Moliyaviy natijalarni shakllantirishda davr harajatlari tarkibida joy olgan 9440-«Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chegiriladigan hisobot davri harajatlari» hisobvarag'i asosida soliqqa tortishda korxonalarga imtiyozlar berish.

Ma'lumki, xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomga binoan bu hisobvaraqda asosiy vositalarni modernizatsiyalash, xodimlar va ishchilarni qayta tayyorlash va shunga o'xshash korxonada kelajakda foydasini ko'paytirishga yo'naltirilgan harajatlar aks etadi. Korxonaning foydasining ko'payishi esa o'z navbatida davlat byudjeti tushumlarini ortishiga, korxonaning moliyaviy holatining yaxshilanishiga olib keladi. Shunday ekan, bizning fikrimizcha, korxonalarga bu borada sezilarli imtiyozlar berish lozim.

4. Ma'lumki, mamlakatimizda materiallarni baholashda AVECO - o'rtacha tortilgan usul qo'llaniladi. Bizning fikrimizcha soliqlar borasida korxonalarga imtiyozlar bergan holda ularga maqbul bo'lgan usulni qo'llash imkoniyati berilsa, bu ularga ham imtiyoz ham foydani ko'paytirishning yana bir imkoniyati bo'lar edi.

5. Sof foydaning taqsimot qatorida jamg'arish va iste'molga yo'naltirilgan mablag'larni ularni shakli va ishlatish o'rnini bo'yicha alohida yuritish, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni moliyaviy hisobotga ilova sifatida kiritish lozim.

6. Qayta soliqqa tortishlardan chekinish, shuningdek, uning rag'batlantiruvchilik rolini oshirish hamda korxona faoliyatini rivojlantirish maqsadida, foydadan qilinadigan sarflar yuzasidan ekvivalentsiz to'lovlarni cheklash, korxona foydasidan soliqdan tashqari barcha (sof foydadan barcha) to'lovlarni bekor qilish lozim.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar respublika byudjetiga tushadigan foydadan soliqlarni belgilashda hisobga olinishi va moliyaviy taqsimotda uning o'zi tomonidan ta'min etilishiga o'tish lozim.

7. Moliyaviy hisobotni tuzishda moliyaviy natijalarning yuzaga chiqishi va shakllanishi bo'yicha hisob qatoriga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanuvchanligini belgilash lozim. Moliyaviy natijalarning shakllanishi bo'yicha moliyaviy hisobotda faqat jamlangan ma'lumotlarga aks etmog'i lozim. Ularning yuzaga chiqish o'rni va shakli bo'yicha alohidalashgan shartli moliyaviy hisobotga tushuntirishlarda berilishi lozim.

Shuningdek, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarida o'tgan yil darajasini taqqoslash bazasi sifatida ololmaymiz. Sababki, ular o'zaro taqqoslash asosiga keltirilmagan. Shu ma'noda o'tgan yilning shu davri bo'yicha ma'lumotlarni yil bo'yicha jamlangan ko'rsatkich sifatida, hisobot yilining shu davridagi ma'lumotlarini esa chorak bo'yicha ko'rsatkichlar tartibida yuritish maqsadli hisoblanadi. Bu esa hisob kitoblarni ancha osonlashtiradi va ularning o'zaro bog'lanuvchanligini ta'minlaydi.

8. Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) summasini moliyaviy hisobot balansga ko'chirishda aniq tartibni belgilash lozim. Uning hozirgi shaklida aktivlarning kamayishi aktivda, passivlarning kamayishi passivda ko'rsatilishi ifodalangan. Lekin zararining bo'lajak yoki kelgusi foyda orqali qoplanishidan kelib chiqilsa, bu holat to'g'ri bo'lmaydi. Uning bir jihatini ahamiyatli sanash mumkin, ya'ni korxona mulkining netto qiymatini aniqlash ma'nosida. Shu jihatdan qoplanmagan zarar summasini balansining aktivida aktivlarning kamayishi va qoplanuvchi qiymat sifatida 2-bo'limi yakunida berib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2013.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Yangi tapiriri. 2007 yil 22 noyabrda tasdiqlangan.
3. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni 1996 yil 30 avgust.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari

4. O'zbekiston Respublikasi. Prezidentining "Xalq xo'jaligida hisob-kitoblar o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxona va tashkilotlar rahbarlarining mas'uliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. 1995 yil 12 may, 2003 yil 4 iyuldagi o'zgartirishlar bilan.
5. O'zbekiston Respublikasi. Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. 2005 yil 6 oktyabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sanoat kooperatsiyasi asosida 2011-2013 yillarda tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1590-son qarori. 29.07.2011 yil.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar nizoni va yo'riqnomalari

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini shakllantirish tarkibi to'g'risida"gi Nizomi. 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standartlari 1998-2014 yillar.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

9. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T.: O'zbekiston . 2011.

10. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz - keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. T.: O‘zbekiston . 2013 yil.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “2014 yil yuqori o‘shirish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi” mavzusidagi ma‘ruzasini. 17.01.2014 y.
12. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish - ustuvor vazifamizdir. T.: O'zbekiston. 2015 yil

V. Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar

13. Akramov E.A. Korxonalar moliyaviy holati tahlili. - T.: Moliya, 2003. 224b.
14. Войтоловский Н.В. Экономический анализ: Основы теории. Комплексный анализ хозяйственной деятельности организации. Учебник.-М.: Высшее образование, 2006.452 ст.
15. Гадаев Э. и другие. Годовой отчет-2009. T.: “Norma”, 2010.-368 б.
16. Gadoev E. va boshqalar. Buxgalter uchun amaliy qo'llanma: ikki jildlik. Toshkent NORMA. 2010.
17. Gadoev E. va boshq. Yillik hisobot-2008. T.: “Norma”, 2009.- 597b.
18. Джамбакиева Г. Финансовый учет. Учебное пособие. T.: “Iqtisod- moliya”, 2012 г. - 348 ст.
19. Донцова Л.В. Анализ финансовой отчетности: Учебник.-М.: Дело и Сервиз, 2008.
20. Do‘smuratov R.D. Audit asoslari.-T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2003.-254 b.
21. Ibragimov A.T., Raximov M.Yu. Boshqaruv tahlili (o‘quv qo‘llanma), - T.:TMI. 2004 y.

22. Ibragimov A., Ochilov I., Qo‘ziev I., Rizaev N. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. T.: Iqtisod-moliya nashriyoti, 2008.-444 b
23. Karimov A., Islomov F., va boshqalar. Buxgalteriya hisobi. Darslik. -T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi, 2004.-592b.
24. Ortikov X.A. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlariga sharhlar to‘plami. T.: “Norma”, 2010. 528-6
25. Ortikov X.A. va bosh Buxgalteriya hisobi bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar to‘plami. Toshkent, «NORMA», 2010. —368-6
26. Ochilov I., Qurbonboev J. Moliyaviy hisob. T.: TMI, 2004.-256 b.
27. Pardaev A.X., Pardaev B.X. Boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma.-T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. 252 b.
28. Sotvoldiev A.S. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. - T.: Milliy Assotsiatsiya, 2004,429 b.
29. Сотволдиев А.С. Финансовый и управленческий учет. Учебник. Т.: “Iqtisod-moliya”, 2012 г. - 280 ст.
30. Sotivoldiev A.S. Buxgalteming izohli lug‘ati. T.: “Norma”, 2010 yil. 280b.
31. Vahobov A.V., Ibragimov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshkaruv tahlili. Darslik. T.; “Sharq”, 2005 y.-474 b.
32. Shog‘iyosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma-T.: “Iqtisod-moliya”, 2009. - 324 b.
33. O‘razov B., Vohidov V. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. T.: “Adib nashriyoti”, 2011 y. - 494 b.
34. G‘ulomova F.G‘. Buxgalteriya hisobini mustaqil o‘rganish uchun qo‘llanma. Toshkent: NORMA, 2010 yil. 496 b.
35. Shim Dj, Sigel Dj. Metodi upravleniya stoimostyu i analiza zatrat.-M.: “Filing”, 1996 g

VI. Internet saytlari

36. <http://www.gov.uz>. (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali)
37. <http://www.mf.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).

38. <http://www.ziyonet.uz> (Axborot ta'lim tarmog'i)
39. <http://www.lex.uz> (O'z.R. qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)
40. <http://www.nza.uz> (O'zbekiston milliy axborot agentligi)
41. <http://www.tfi.uz> (Toshkent moliya instituti sayti)